

جدید

2025-yil 28-mart
№ 13(65)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

GURUNG

“JADIDLIK ENDI O'LMAYDIGAN HARAKATGA AYLANDI”

O'zbekiston Qahramoni, atoqli adabiyotshunos, adib va mutarjim

Ibrohim G'AFUROV bilan suhbat

– Assalomu alaykum, ustoz. Siz ham zamon, ham ruhiyat nuqtayi nazaridan jadid bobolarimizga eng yaqin millat oydinlaridan birisiz. Jadidlik harakati davomchilarini ko'rgansiz, ular bilan birga ishlalgansiz, albatta, suhbatida bo'lgansiz. Ayting-chi, jadidlar ozodlik va ma'rifat yo'lidagi kurashlarida nima-ning badaliga bu darajada qat'iyat va ishonch bilan fidoyilik ko'rsatishgan?

– Jadidlar haqida, ularning tarixi xususida, dunyoga kelishi, tarqalishi, jahonning katta qismini g'oyalari, fikrlari, mafkurasi, faoliyati bilan egallashi, o'ziga milliy fikr va g'oya maydonlarini yaratishi borasida ilk marotaba suhbatlashyapmiz. Jadidlar aynan XX asr va bizning davrimizda, davlatimizda qad-dini rostlashi, yer bag'ridan ko'kragini ko'tarib, shoironaroq qilib aytganda, quyoshga qarab yuksalishi tasodif emas. Jadid harakati degan ulug' bir ruh egasi dunyo miqyosida nihoyatda katta oqim sifatida iqtidorga kelishi bu yaqin umumbashariyat tarixida ro'y bergan buyuk hodisalardan biridir. Moziy jadid nomi ostida mafkura, g'oya, mustaqillik, ma'rifat, erk uchun kurashlar maydoni yaratilganiga dalolat qiladi. Tariximizning buyukdan buyuk ijtimoiy, siyosiy, falsafiy, hayotiy hodisasi, voqeligi mustabid tuzum tomonidan qanchalar dahshatli quvg'inlarga uchramasin, qon qaqshatilmasin, ildizlarigacha yo'qotib yuborishga tish-tirnoq bilan harakat qilinmasin, Prezidentimizning juda katta

fikrli tashabbuslari sabab adolat qaror topdi. Jadidona g'oyalar bugungi kunda ijtimoiy, madaniy, falsafiy tafakkur islohoti harakatlari ichiga o'zining tub hayotiy kuch-quvvati bilan kirib bormoqda. Ushbu hodisaning tiklanishi, xalqimizga, mamlakatimizga asl mazmun-mohiyati miqyosida to'kis-tugal qaytarilishi bu davlatimizning o'z tayanch nuqtasini topib, xalq ichida yanada kuch-qudrat kasb etishidan darak beradi. Jadidlik endi o'lmaydigan harakatga aylandi. Ana shu tarixiy adolati tiklagani uchun hammamiz qo'limizni ko'ksimizga qo'yib, Prezidentimizga tuganmas minnatdorigimizni bildiramiz.

Chunki Yurtboshimiz zamonamizning yetakhi jadidi o'laroq mintaqada geosiyosiy islohotlarga bosh bo'lib, bobolarimiz orzu qilgan turkiy davlatlar hamjihatligini tiklayotgan, Markaziy Osiyoni boshqa qit'alar bilan bog'layotgan xalqaro miqyosdagi haqiqiy lider sifatida maydonga chiqdi. Shuningdek, Orolbo'yi muammolari, tinchlik va yoshlar, umuman, zamonning muhim sanalgan nimayiki masalasi bo'lsa, ularni asosli tarzda dunyoning eng nufuzli minbarlarida ko'tarib chiqqani, BMT bosh kotibi Antoniu Guterriush ta'бири bilan aytganda, Shavkat Mirziyoyevning mintaqadagi ko'priki o'ratuvchi tashabbuskor, tinchlik elchisi ekanini yana bir bor amalda isbotladi.

Albatta, bu sa'y-harakatlarni butun dunyo hamjamiyati ko'rib-bilib turibdi, e'tirof etyapti. Yevropaning yuragi sanalgan Fransiya rasmiy tashrif

chog'ida mezbon Emmanuel Makron Shavkat Mirziyoyevni “Faxriy legion” ordeni bilan taqdirlashi ham ana shu xalqaro e'tiroflarning navbatdagisidir.

Bu fikrlar davr taqozosi. Yana savolingizga qaytsak. Men 1956–61-yillarda O'zbekiston Milliy universitetining filologiya fakultetida tahsil olganman. Bizga Ozod Sharafiddinov, G'ulom Karimov, Subutoy Dolimov, Shavkat Rahmatullayev, Laziz Qayumov, Natan Mallayev kabi ham pedagog, ham olim, ham jamoat arbobi sifatida yuksak iqtidorli, hech qanday yasama, soxtaligi bo'lmagan odamlar dars bergan, ongimizni ochishgan. Universitetni tugatganimizda ba'zi do'stlarim bilan birga meni Madaniyat vazirligiga ishga jo'natishdi. U yerda bizni nashriyotlarga taqsimlashdi. Men bilan kursdosh do'stim, shoir To'liqinni Davlat badiiy adabiyot nashriyotiga yuborishdi. Ikki-uch oylik sinov muddati o'tgach, meni muharrir lavozimiga ishga qabul qilishdi. “Navoiy-30”da joylashgan bu nashriyot keng qamrovli, kattakatta yozuvchilar, adiblar, madaniyat namoyandalari ishlaydigan joy edi. U yerda Mirtemir aka, Mirkarim Osim, Odil Sharopov, Rustam Komilov, Mirmuhsin, Hakim Nazir, Sulton Akbariy kabi ajoyib odamlar xizmat qilishardi. O'sha yerda men haqiqiy ma'nodagi jadid siyoqli, jadid qiyofali, butun saxti-sumbatidan jadidona nur yog'ilib turadigan odamlarni ko'rishga muyassar bo'ldim. Ular bilan birga ishlaganim, ularning qo'lyozmalarini sinchiklab o'qib, taqriz-



lar yozib, muharrirlik qilganimdan o'zimdan o'zim minnatdor bo'lib yuraman. Axir Mirtemir, Ramz Bobojon, Sulton Akbariy, Hamid G'ulom, Qodir Mirmuhamedov, Lola Tojiyeva, Mirziyod Mirzoidovga o'xshagan kamtar va fidoyi ijodkor noshirlarni o'sha yerda tanidim-da. Bu menga hayotning mislsiz tuhfasi bo'ldi.

Mirkarim Osim benihoya kamtarligi bilan mehrimizni qozongandi. U doim qisinib, devor yoqalab, yo'laklarning chetidan yurardi. Shundanmi kiyimining bir yelkasi doim oqarib yuradigan, ammo eski dunyoni yaxshi biladigan ulkan adib muarrix edi... Ana o'shalar jadidlarni ko'rgan, o'ziyam jadid qiyofali kishilar bo'lgan. Tirik jadidlardan Mo'minjon Muhammadjonov – Toshqinni ko'rganman...

Men dastlab tog'amning kutubxonasida Usmon Nosir, Cho'lpon, Qodiriy kabi jadid namoyandalarning ayrim kitoblarini o'qiganman. Ularni jadid deyishardi, faqat u paytlar so'kish va haqorat ohangi sezilib turardi bu so'zlar zamirida. Yomon so'kishardi. Eng kamida “xalq dushmani” deb haqorat qilishardi, kamsitishardi. Chunki mustabid sovet mafkurasi sichqon inigacha o'z g'oyalarini qo'rg'oshindek quyib tashlagandi.

(Davomi 3-sahifada.)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
QARORI

RAMAZON HAYITINI NISHONLASH TO'G'RSIDA

Yangi O'zbekistonda “Inson qadri uchun, inson baxti uchun” degan ezgu g'oya asosida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar tufayli xalqimiz farovonligini oshirish, ko'pmillatli jamiyatimizda tinchlik-osoyishtalik, do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash borasidagi ishlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Bularning barchasi bag'rikenglik, saxovat va shukronalik timsoli bo'lgan muborak Ramazon oyini mamlakatimizda tinch-totuv, fayzli va shukuhli muhitda o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buni el-yurtimiz o'rtasida insonparvarlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat, kam ta'minlangan va ehtiyojmand shaxslar, yordamga muhtoj oilalarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish kabi yuksak insoniy fazilatlar ayni kunlarda yanada yaqqol namoyon bo'layotgani ham tasdiqlaydi.

Ulug' ayyom – muqaddas Ramazon hayitini ana shunday xayrli ishlarni izchil davom ettirgan holda har tomonlama munosib kutib olish, o'tkazish va uning mohiyatida mujassam bo'lgan ezgu qadriyat va an'analarni keng targ'ib etish maqsadida **qaror qilaman**:

1. Joriy yilda Ramazon hayitining birinchi kuni **30-mart – yakshanba** kuniga to'g'ri kelishi haqidagi O'zbekiston musulmonlari idorasining axboroti ma'lumot uchun qabul qilinib, mamlakatimizda 2025-yil **30-mart** kuni Ramazon hayiti bayrami sifatida keng nishonlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 208-moddasiga muvofiq:

a) ishlamaydigan bayram kuni hisoblanuvchi Ramazon hayitining birinchi kuni 2025-yilda yakshanba – dam olish kuniga to'g'ri kelishi munosabati bilan ushbu dam olish kuni 31-mart – dushanba kuniga ko'chirilishi;

b) bunda ishlab chiqarish-texnik va tashkiliy sharoitlar (mavjud uzluksiz ishlab chiqarish, aholiga har kuni xizmat ko'rsatish, navbatchilik asosida ishlash va boshqalar) tufayli ishlamaydigan bayram kunlari to'xtatib qo'yish mumkin bo'lmagan ishlarni bajarishda dam olish kunlari ko'chirilmasligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda hududlarda Ramazon hayitini xalqimizning **milliy an'ana va urf-odatlariga uyg'un holda** o'tkazish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

Turizm qo'mitasi Transport vazirligi bilan birgalikda yurtdoshlarimiz uchun Ramazon hayiti kunlarida **mo'tabar ziyoratgohlar va tarixiy qadamlarga ziyoratlarni tashkil etish** maqsadida qulay sharoit va imkoniyatlar yaratilsin.

4. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Ramazon hayitini nishonlash bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi R.Q.Davletov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2025-yil 26-mart

TAASSUROT

BEHBUDIY IZDOSHLARI GERMANIYADA



Prezidentimizning “Turkiston jadidlik harakati asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiyy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida”gi tarixiy qarori qabul qilingach, nafaqat yurtimizda, balki qardosh va yondosh davlatlarda ham umumbashariyatning yorqin siymosi bo'lgan ulug' bobomiz ijodini tadqiq va targ'ib etish borasida ilmiy anjumanlar, davra suhbatlari muntazam o'tkazib kelinayapti.

Yaqinda Germaniyadagi elchixonamizda millat faxri, “Turkiston jadidlik harakatining boniysi” (Begali Qosimov ta'rifi) sanalgan fidoyi siymoga bag'ishlangan madaniy-ma'rifiy tadbir hamda Germaniyadagi o'zbek talabalari uyushmasining rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Gyote diyorida o'zbek tilini o'rganayotgan nemis yoshlari, o'zbekistonlik talabalar hamda “Jadidlar izidan” respublika tanlovida g'olib bo'lgan maktab o'quvchilaridan iborat delegatsiya ishtirok etdi.

– Behbudiyning boy merosini o'rganish va uning g'oyalarini yoshlar orasida targ'ib qilish bugungi kun uchun juda muhim, – dedi O'zbekistonning Germaniyadagi Favqulodda va Muxtor elchisi Dilshod Ahadov. – Bu kabi tadbirlar tariximiz va milliy qadriyatlarimizga hurmat tuyg'ularini oshiradi. Yurtimizdan kelgan “Jadidlar izidan” tanlovi g'oliblarini erishgan yutuqlari bilan tabriklay turib, bu avlod ma'rifatparvar jadidlarimizning munosib vorislari bo'lib yetishishiga umid bog'ladik.

Elchi janoblari O'zbekiston talabalari uyushmasi haqida ham alohida to'xtalib, elchixonaga yoshlar tashkilotini har tomonlama qo'llab-quvvatlashini ma'lum qildi. Mazkur uyushma nemis diyoridagi iltalab yoshlarni birlashtirish, bu yerga o'qishga kelayotgan tolibi ilmlarga yordam ko'rsatish hamda nemis xalqini millatimiz madaniyati, san'ati va hayoti bilan tanishtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganini e'tirof etdi.

Biz ushbu tadbir ishtirokchilarini suhbatga chorladik.

(Davomi 6-sahifada.)

MILLAT FIDOYLARI



IMPERIYANI QO'RQITGAN AMIRZODA

“KATTA O'YIN” GIRDOBIDA

XIX asrda dunyo xaritasidagi chegaralar o'zgarib, ayrim davlatlarning hududlari hukmron imperiyalar o'rtasida “talash” bo'ldi. Bu davrga kelib serhosil yerlari va yerosti boyliklariga ega Turkiston o'lkasiga ikki qudratli imperiya – Angliya va Rossiya ko'z tika boshladi. Ikki o'rtadagi raqobat esa tarixda “Katta o'yin” nomi bilan mashhur. Afsuski, mintaqadagi hukmron doiralar – xonlar, amirlar bu xavfni oldindan ko'ra olmadilar. Garchi qattiqqo'lligi va shafqatsizligi bilan nom qoldirgan bo'lsa-da, Buxoro amirlari orasida Nasrulloxon shayboniy hukmdor Abdullaxon II davridagi kabi markazlashgan davlat tuzishga intildi. Ammo bu maqsadini ro'yogbga chiqara olmadi. Undan so'ng taxt boshiga kelgan Muzaffar tez orada uzoqni ko'ra olmaydigan hukmdor ekanligini ko'rsatdi.

“MEN BIR JAHD QILSAM,
MASKOVGACHA BORAMAN!”

Said Abdumalikxon (tarixga Katta to'ra nomi bilan kirgan) mang'itlar sulolasi vakili Muzaffarning to'ng'ich farzandi edi. Katta to'ra Muzaffarning Zumrad ismli xotinidan tug'ilgan bo'lib, bu ayol afg'on amirining qizi edi. Shahzoda 12 yoshida Karmanaga hokim etib tayinlanadi. Keyin esa G'uzorga yuboriladi.

Shahzoda faoliyati kam o'rganilgan. Rus tarixchilarining aksari bu boradagi tarixni xolis yoritmagan. Unga “isyonchi o'g'il” tamg'asini bosib, yirik ozodlik harakatini ahamiyatsiz qilib ko'rsatgan. Mustaqillik yillarida bir qator olimlar bu mavzuni o'rganib, xolis tahlil qildilar. Shu o'rinda tarixchi olim Abror Odilovning Abdumalikxon faoliyatini o'rganishdagi tadqiqoti muhim ahamiyat kasb etadi.

(Davomi 7-sahifada.)

RAMAZON SABOQLARI

JISM VA RUH MAYLI

Barchaga ayonki, adabiyot din emas, din ham adabiyot emas. Lekin musulmon xalqlari adabiyotini dindan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi.

Islom ta'limoti o'timishda so'z san'ati uchun ma'naviy asos edi. Buni barcha mumtoz shoir-u adiblarimiz, xususan, Alisher Navoiy ijodi ham yaqqol isbotlab turibdi.

Davriming o'zi Navoiyga islomning targ'ibotchisi bo'lish vazifasini yuklagan edi, desak, xato bo'lmas. Shoir “Siroj ul-muslimin” (“Musulmonlar chirogi”) asarining yozilishiga turk bo'lgan ba'zi bir sabablarni aytib o'tadi.

(Davomi 3-sahifada.)





MUNOSABAT

YURAKDA POKLANISH, IDROKDA UYG'ONISH



Inson so'zining lug'aviy ma'nosi unutuvchi, esdan chiqaruvchidir. Tog'lar yemirilib, qum barxanlariga aylandi, dengizlar qurib, sahroga do'ndi, ming-minglab porloq yulduzlar fursati kelib so'ndi. Ammo inson o'z fitratidagi unutuvchanlik xislatiga sodiq qoldi. Balki shu boisdir, bani basharni asl Vatanimiz – jannatga olib boruvchi yo'l e'tiqod, ezgulik va to'g'rilik ekanini eslatib turmoq uchun bir yuz yigirma to'rt ming yalavoch yuborilgan. Balki shu boisdir, osmonlar-u tog'lar ko'tarolmagan omonat yukini inson o'z zimmasiga olgan.

Yaqin o'tmishda o'z davlatimizdagi majlis-yig'inlarda boshqa tilda gapirib, hujjatlarimizni ham o'zga lisonda yuritishga majbur bo'lganimizni bugungi avlodga aytak, ishonmasligi tayin. Til bilmagan mushtipar onalarimiz poyezdga chipta olish uchun ham biror bilag'onga iltimos qilganlari hozir cho'pchak bo'lib tuyuladi. Ramazon oyini munosib kutib olish, hayit bayramini keng nishonlashga doir davlat rahbarining maxsus farmoni chiqishi xayrli an'anaga aylandi. Holbuki, qirq-ellik yil oldin ro'za tutish u yoqda tursin, shunchaki fothaga qo'l ochgani uchun siyosiy rahbarlar jazoga mustahiq etilgani katta avlodning yodidan o'chgani yo'q.

“Berilgan ne'matlarga shukrona keltirish, ne'matning ziyoda bo'lishiga sabab bo'ladi, noshukrlik esa boridan ham mahrum etadi”, deydi Mavlono Jaloliddin Rumiy. Yangi zamonada, inchinun, diniy sohada bahramand bo'layotganimiz erkinlik, kengchiliklarni sanab adog'iga yetolmayсан kishi. Kechagina umra safariga borish uchun yillab navbat poylagan yurtodshlarimiz, bugun istagan paytlarida muqaddas yerlarga safar qilib, ibodat amallarini amin-erkin ado etib kelmoqdalar. Yaqin yillargacha taroveh namozlariga qo'shni davlatlardan qorilar jalb etilar edi. Bugun esa yurtimiz masjidlarida o'zimizda tarbiya topgan murattab qorilar ishtirokida xatmi Qur'onlar o'tkazilmoqda. Xorijiy davlatlar so'roviga ko'ra o'zbekistonlik qorilar hatto yaqin-yiroq o'lkalarda xatmi Qur'on o'tkazib bermoqda. Mamlakatimizning biror go'shasida obod bo'lmagan ziyoratgoh qolmadi hisob. Har yili yuz minglab musulmonlar yurtimizga kelib, buxoriylar-u xorazmiylar, termiziyalar-u farg'oniyalarning qadamjolarini ziyorat qilib, muqaddas qadamjolar fayzidan bahramand bo'lmoqda. Quvonarlisi shuki, kechagina tarixiy meros talashgan qo'shni qardoshlarimiz, davlatimiz olib borayotgan birdamlik va yakdillik siyosatini tufayli tariximiz ham, bugunimiz va kelajagimiz ham mushtarak ekanini anglab yetmoqda.

Hammaning ko'nglini topmoq amrimahol ekan. Tan olish kerak, afsuski, oramizda mamlakatimizda olib borilayotgan dunyoviylik siyosatini noto'g'ri tushunib, dahriylik tamg'asini yopishtirmoqchi bo'layotganlar ham, e'tiqod erkinligiga mutaassiblik to'nini kiydirishga urinayotganlar ham bor. Ana shunday yanglish qarashdagi zamondoshlarimiz kuni kecha muhtaram

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mezbonligida Ko'ksaroy qarorgohida o'tkazilgan iftorlik marosimini ko'rdilarmikan? O'sha kuni respublikamizda rasman ro'yxatdan o'tgan o'n olti diniy konfessiya rahbarlarining bir dasturxon atrofida jamuljam bo'lgani ayb muqaddas dinda emas, balki ayrim dindorlarning mahdud tushunchasida ekanini yana bir karra tasdiqladi.

Hazrat Navoiyning mashhur bayti bor:

**Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.**

Davlatimiz rahbari iftorlik marosimidagi nutqida ijtimoiy soha bo'yicha qo'lga kiritilgan natijalar xususida ayrim raqamlarni keltirdi. O'tgan yilning o'zida muhtoj oilalarga 16 trillion so'mlik moddiy yordam va nafaqalar berilibdi. Demak, yo'qchilik sabab muammolar girdobida qolgan minglab ko'ngil-larga shodlik ulashilgan, Yaratganning nazargohi bo'lgan qalblar obod qilingan. Inson qadri, inson baxti aslida shu emasmi?..

Oylarning sultoni Ramazon – ruhiy poklanish, ma'naviy tozari shifosidir. Bu yil mo'min-musulmonlar intiqib kutgan muqaddas oy ko'klam fasli bilan, ming oydan afzal Qadr kechasi esa yasharish va yangilanish ayyomi – Navro'zi olam bilan deyarli bir vaqtga to'g'ri kelganida ham ramziy ma'no bor. Bu hol mamlakatimizda milliy va diniy qadriyatlar uyg'un ravishda rivojlanayotganiga ishora go'yo. Bahoriy kayfiyat, yaratish ishtiyoqi, ruhiy bardamlik, ko'ngillarning birdamligi – barcha-barchasi yurtodshlarimizning qalbi va ongidagi uyg'onish, poklanish ehtiyojiga javob bo'lmoqda.

Bugun kechagi muvaffaqiyat bilan yashab bo'lmaydi. Hayotning o'zi oldimizga yangi-yangi marralar, yangi vazifalarni qo'ymoqda. Bu vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarmoq, qo'yilgan yuksak marralarni zabt etmoq uchun esa pok niyat, ezgu amal, yaxshi so'z va ma'rifatga muhabbat lozim.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida tariqatning ulug' peshvosi Bahouddin Naqshbandning “Qo'ling mehnatda, diling Allohda bo'lsin”, degan o'g'itini yodga olib o'tdi. Biz oriflar sultoni Junayd Bag'dodiydan bir hikmatni zikr etmoqchimiz.

Bag'dodiy hazratlaridan “Birgina duongiz qabul bo'lishini bilsangiz, kimni duo qilardingiz?” deb so'ra-shibdi. “Zamon sultonining ishiga rivoj tilab duo qilardim. Zero, sultonning ishi o'nglansa, raiyatning ishi ham o'nglanur”, deb javob beribdi oriflar orifi.

Bu yilgi Qadr kechasi o'zgacha fayz-u shukuh bilan o'tdi. 1700 dan ziyod masjidlarimizda xatmonalar bo'ldi. Nuroni otaxonlarimiz, yurtimizdagi jamiki mo'min-musulmonlar muhtaram Prezidentimizga mustahkam sog'liq, uzoq umr hamda xayrli ishlariga baraka tilab duolar qildilar. Sidiqidildan qilingan duolar mustajob bo'lgusi, inshoalloh!

**Olimjon DAVLATOV,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti direktori,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori**



ONAJONIM – TABIAT

Ilgari har bir hovlida ota-bobolar farzandlari, nevaralariga atab tuproqqa ko'chat qadashgan. Nihollar tobora chuqur tomir yoyib, kun sayin baquvvat dov-daraxtga aylanib borarkan, bu rivoj ota-bobomizga o'zgacha surur bag'ishlasa, farzandga oilaning ertasi, tayanchi sifatida zimmasidagi ulkan mas'uliyatni anglatib turgan. Agar oilada o'g'il farzand tug'lsa, hovli chekkasiga yaxshi niyatda yigirma tup terak ko'chati ekilar, ular kun kelib yigit voyaga yetganda uyli-vatanli bo'lishida asqotardi. Shular haqida xayol surar ekanman, “Otangning tol ekkani – o'ziga nom ekkani” naqli beixtiyor esga kelaverdi. Naqadar haq gap!

jonga ora kiradi. Kuzag-u ayozda yaproq to'kib yalang'ochlanishiga qaramay, havoni chang-g'ubordan himoyalashda davom etadi.

Daraxt ekish atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda eng samarali usullardan biri bo'lib, bu borada jahonda ko'plab an'anaviy yirik loyihalar mavjud. Afrikada 2007-yildan boshlab yo'lga qo'yilgan “Buyuk yashil devor” (“Great Green Wall”), Xitoyda 1978-yildan beri izchil amalga oshirib kelinayotgan “Three-North Shelterbelt Program”, Efiopiyadagi “Yashil meros” (“Green Legacy”), Braziliyaning Amazon o'rmonlarini tiklashga qaratilgan “Trillion daraxt” (“Trillion Trees”) loyihalarini eng muvaffaqiyatli tashabbuslar sifatida e'tirof etish mumkin.

etiladi. Shundan so'ng shahar hokimiyati qo'shimcha 1500 yevro ajratadi. Boshqa sarf-xarajatlar bilan qo'shib hisoblaganda bir daraxt ekish va uni parvarishlash 2800 yevroga tushadi. Shuningdek, shaharning ayrim joylarida nikohdan o'tayotgan yoshlar maxsus ajratilgan hududlarga borib, daraxt ekishadi. Bu an'ana yangi oila, mehr-muhabbat ramzi sifatida yuksak qadrlanadi.

Butun dunyoda iqlim o'zgarishi global muamмога aylanib borayotgan bir paytda bu xavf biz yashab turgan makonni ham chetlab o'tmasligi kunday ravshan. Taassufki, so'nggi paytlarda turli qurilishlar va boshqa sabablar bilan “yashil do'stlarimiz” ildiziga bolta urayotganlar toifasini ham uchratdik.



BOG' YARAT, MEVASINI TATIRSAN!

O'zi, daraxt ekib, bog' yaratish – bizga bobomeros. Tarix sahifalarini varaqlasak, bog'lar asnosida “o'ziga nom ekib ketgan” buyuk ajdodlarimiz shaxsi, ezgu qadriyatlar bilan yuzlashamiz. Sohobqiron Amir Temur yaratgan bog'-rog'lar hammamizga ma'lum: “Bog'i Behisht”, “Bog'i Baland”, “Bog'i Dilkucho”, “Bog'i Maydon”, “Bog'i Nav”, “Bog'i Shamol”, “Bog'i Zog'on”, “Bog'i Chinor”, “Bog'i Naqshi Jahon”... Ular bizga yaxshidan bog' qolishi hikmatini mudom urg'ulab turadi. “Temur tuzuklari”dan mana bu qayd esa Sohobqiron bobomizning yaratuvchanlik salohiyatidan darak: **“Hamishalig' ta'kid etur edim: xon bo'lsang-da bog' yarat, gadoy bo'lsang-da bog' yarat – bir kunmas-bir kun mevasini tatirsan...”**

Eslayman, bolalik damlarimda har to'rt-besh hovlining birida, albatta, tut daraxti bo'lar, shoxlari tarvaqaylab paxsabo'y o'sib ketar, tupshar palla bo'yimiz yetmagan joylarini tom ustida o'tirib terib olardik. Bola bo'lib bizga qorin g'ami muhimroq, ularning hovli etagiga ekilgan u qadar qiziq emasdi. Keyinchalik bildimki, tutning imoratga yaqin ekilishi suvni bug'latib, devorlar zax tortirishining oldini olarkan. Teran fikrli ota-bobolarimiz daraxtlarni shunchaki havasga ekmagani, balki bu xayrli ishning-da tagzamidagi ilm yotganini anglab, ajdodlar zakovatiga tahsin aytasan kishi.

Daraxt va butalar havodagi changni hamda kasallik qo'zg'ovchi bakteriyalarni kamaytiradi. Atrofdagi yashillik qancha ko'p bo'lsa, kislorod almashinuvi va havoni tozalash imkonini shuncha oshadi. Qolaversa, daraxtlar shahar shovqinini ham qiyadi, jaziramada salqinlik berib

Xususan, Afrikadagi “Great Green Wall” loyihasidan ko'zlangan bosh maqsad Sahroyi Kabir cho'lining kengayishini to'xtatishdan iborat. Loyihaga ko'ra, 8 ming kilometr uzunlikda yashil hudud yaratish maqsad qilingan. Ushbu tashabbusda qit'adagi 20 ga yaqin davlat bevosita ishtirok etadi. Loyiha natijasida tuproq eroziyasining oldi olinib, millionlab odam ish bilan ta'minlanayotir.

Xitoy tajribasi ham muvaffaqiyat qozongan loyihalar safidali xalqaro miqyosda e'tirof etilmoqda. “Three-North Shelterbelt Program” dunyodagi eng katta o'rmonlash-tirish dasturlaridan biri sanaladi. Ushbu loyiha G'o'bi sahrosining kengayishini sekinlashtirishni nazarda tutadi. Dastur doirasida millionlab gektar maydonga daraxt ekilgan. Bu esa tuproq unumdorligini tiklash va mahalliy ekologizmi barqarorlashtirishga yordam bermoqda.

Efiopiyaning “Yashil meros” tashabbusi esa o'ziga xos jahon rekordi bilan mashhur – 2019-yili loyiha doirasida bir kun ichida 350 million tup daraxt ekilgan. Bu loyiha hududda qurg'oqchilik xavfini kamaytirish, yer unumdorligini oshirish va suv resurslarini yaxshilashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Bordi-yu, Germaniyaga yo'lingiz tushsa, so'lim va quyuq daraxt-zorlardan qadamingiz uzilmaydi. Tabiiyki, ularni parvarishlash juda katta mablag', vaqt va kuch talab etadi. Shu bois mamlakatning deyarli har bir shahrida “Yashil ko'ngillilar” jamiyati faol ishlaydi. Misol tariqasida Kyoln shahrini olaylik. Bu yerda fuqarolar “Kyoln uchun 1000 daraxt” tashabbusi doirasida ko'chat ekishga homiylik qilishi mumkin. Buning uchun 1200 yevro miqdorida xayriya qilish talab


Bunday holatlar keng jamoatchilik, xalqaro va mahalliy ekofaollar tomonidan e'tibor markaziga olinib, qonuniy yechimlar taklif etish darajasigacha ko'tarildi. Shu tariqa tuproqning unumdor qatlamini saqlab qolish va yashil hududlarni asrash maqsadida endilikda 2025-yil 1-iyuldan boshlab ko'pqavatli uylar massivlaridagi tuproq va yashil qoplamali umumiy foydalanishdagi hududlarni o'zboshimchalik bilan betonlashtirganlik, qurilma va konstruksiyalarni o'rnatganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirilishi belgilandi.

Davlat rahbarimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi esa yurtimizda ekologik vaziyatni yanada yaxshilash, iqlim o'zgarishlariga milliy yechim sifatida taqdim etilgan ezgu tashabbus o'laroq umummilliy harakatga aylanib ulgurdi.

Ushbu loyiha doirasida belgilangan vazifalar, jumladan, 200 million tup daraxt va butalar ekish, “Soyali sayr ko'chalari” tarmog'ini yaratish, Orol dengizi tubida 100 ming gektar “yashil maydon” barpo etish va Orolbo'yi mintaqasidagi o'rmonzorlarni 2,1 million gektarga, o'rmon bilan qoplangan maydonlarni 4,1 million gektarga yetkazish va muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni 14,5 foizgacha kengaytirish – bularning barchasi hududlarni obodonlashtirish, ekologik jihatdan qulay va farovon muhitni yanada yaxshilashga xizmat qilishi shubhasiz.

Qamrov ham aytib turibdi, “Yashil makon” bir yillik tadbir emas, kela-jak uchun davomli harakatdir. Ushbu umummilliy loyiha shaharlarimiz, mahallalarimizga o'zgacha fayz bag'ishlovchi yangi yashil hududlar barpo etilishiga turtki berishi bilan birga, yurtimiz iqlimini mo'tadil saqlash, tabiatni asrash, aholi salomatligini yaxshilash, pirovardida xalqimiz farovonligini ta'minlashda yuksak ahamiyat kasb etadi.

**Xayrullo G'AFFOROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining
Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi raisi**



Boshlanishi 1-sahifada.

– **Xalq ham shunga ishongan-da?**
– Ishongan. Ko'pchilik ko'ri-ko'rona ishongan. Jadidlar xalqning ichida bo'lgan. Xalqdan o'zini tortib hech kim jadid bo'lgan emas. Mirkarim Osimning go'zal tarixiy hikoyalari o'qisangiz, boshingizni ko'tarolmay qolasiz. Navoiy, Forobi, Ibn Sino, Beruniy xususida, yo'qolish dara-jasiga kelgan qanchadan qancha buyuk tarixiy namoyandalimiz haqida ham tarixiy, ham hayotiy, ham insoniy, ham ilmiy – olimlik nuqtayi nazaridan eng baland nuqtalarda asarlar yozib, tiriltirgan odamlar edi ular. Asl jadidlik shu! Xalq taqdiri uchun qayg'urish shu!

Bir keksa adib va muallim haqida gapirib bermoqchiman. Mo'minjon Muhammadjonov to'g'risida. U Toshqin degan taxallus bilan yozardi. Oybek, G'afur G'ulom bilan, ilk jadidlar bilan ham birga ishlagan. 1926-yilda xotiralar asosida "Turmush urinishlari" degan go'zal bir kitob yozgan. XX asr boshlaridagi Markaziy Osiyo, xususan, o'zbek xalqi hayotini haqqoniyati, samimiyati bilan rost yoritib bergan. Haliyam o'qisangiz, o'sha davrning voqealari, odamlari, jadid namoyandalari-yu boshqa turli siyosiy, ijtimoiy, diniy tashkilotlar vakillarining ham siymolari Mo'minjon Muhammadjonovning qalami ostida nihoyatda tirik gavdalanadi. Oybek domla ham keyinchalik "Ulug' yo'l" degan e'tibori roman yozganlar. Ana o'sha yerda jadidlarning hayoti juda go'zal yombi haqqoniyat bilan ifodalangan. Gap-so'zlari, fikrlari, o'ylashlari, falsafasi, kurashchanligi va kurashda bo'yini kundaga qo'ygani shunday yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Mo'minjon Muhammadjonov – Toshqin bilan nashriyotda ishlayotgan paytlarim tanishganman. O'shanda meni mumtoz adabiyot, folklor, qrim-tatar adabiyoti, adabiy tanqid, adabiyotshunoslik sohalar bo'yicha bo'lim mudiri qilib qo'yishgandi. Qarib, munkillab qolgan Mo'minjon Muhammadjonov qo'llarida eskitirib ketgan qalin papka solingan xalta bilan kirib kelgandi xonaga. Diqqatimni tortgani – kiyimlari eski, lekin juda ozoda edi. O'zlarini tanitdilar: "Yangi ishga kelibsiz, o'g'lim, tanishgani keldim", dedilar. Haligi xaltani ochib, papkadan "Nayzangul" deb qalamda yozilgan qo'lyozmani chiqardi. "Mana shu ro'monni, Ibrohimjon, sizga olib keldim. O'qing, agar ma'qul bo'lsa, chiqarsangiz, o'quvchilar ham maza qilardi", dedi. Qo'lyozmani olib qolib, 10-15 kunda o'qib chiqdim. Xalq latifalari usulida yozilgan, hayot hodisalari, kolliziyalari, zo'ravonliklarini ko'rib, esidan og'ib qolgan Nayzangul degan odamning obrazini yaratibdi. Olomon ichida masxarabozlik qilib, qo'llarida kashkullar bilan doim "Nayzangul-o, Nayzangul" deb takrorlab yuradigan darvesh-qalandarlar bo'lardi yuz yil avvallari, deb eshitganmiz. Insonni qanchalar zo'ravonlik ostida xor-u zor qilib, esidan ayirishgani, hushini olib, taqdirini barbod qilishgani haqida ekan roman. Ko'rishganimizda "Yaxshi yozilbdi, rejaga qo'yamiz, rahbarlarga yetkazaman. Faqat ozroq qisqartirishga to'g'ri keladi. Sizga bir oy vaqt bersak, bir ko'rib, o'zimga qaytarib olib kelib bersangiz", dedim va ko'zimga tashlangan ayrim juz'y'i nuqsonlarini ko'rsatdim.

Keyin bilsam, u kishi katta shoir, jamoat arbobi, tahririyatlarda ishlagan, yuzlab maqola-lar chiqargan ziyoli domla ekanlar. Qo'lyozmani olib ketdi, shu-shu qaytib kelmadi. Demak... o'tib ketgan. Surishtirdim, hech qayerdan da-ragi topilmadi. Roman ham yo'q. Hozirgacha topilmagan "Nayzangul"... Avlodlari ham yo'q ekan. Uyini ham topolmadim. Eski Jo'va, Sag'bon atrofidan bo'lsa kerak, deb o'ylardim, lekin u tomonlarda ham domlani hech kim ko'rmagan bo'lib chiqdi.



Boshlanishi 1-sahifada.

Temuriy hukmdori Husayn Mirzoning yashinlaridan bir nuktadan kishi: "Navoiy she'rlarida oshiqlik-u mayparastlikni bisyor kuylab, islom-u din uyiga ko'p g'avg'o soldi-da", qabilida fikr bildiradi. Albatta, Navoiy asarlarida may ramziy timsol, ishq esa Allohga oshiqlik ekan ayon. Biroq endi shoir din uyini obod aylaydigan, ya'ni islom asoslarini tushuntirib beradigan bir asar yozishni ko'ngliga tugadi.

Ammo goh u, goh bu tashvish bilan bo'lib, orzulagani bu asarni bitishga hech fursat topolmaydi. Yillar o'tib, shoir oltmishga yaqinlashgan bir mahalda Samarqanddan Hirotgat bo'm'tabar zot tashrif buyuradi. Navoiy ham uning ziyoratiga boradi. Mehmon Navoiyga o'zining piri bo'lmish Xoja Ahror Ubaydulloh Valiyning yillar burun u haqda aytgan: "Alisherbek ko'p yaxshi nazmlar bitdi, lekin bevosita din targ'ibiga oid bir asar yozish ham undan lozim edi", degan omonat gapini yetkazadi.

Allaqachon bu dunyoni tark etib ketgan ulug' piring bu tilaklari shoirga ruh baxsh etadi. U o'sha zahotiyoyq "Siroj ul-muslimin"ni yozish uchun qalam yo'nadi...

"Siroj ul-muslimin"da ro'za haqida maxsus ikki



Men shunday sharqshunos domla Laziz Azizoda bilan ham tanishganman o'sha kezar. Yigirma yildan ortiq surgunda yurgan. Tarixi uzun...

– **Buyuk shaxsning o'zi davr qolipiga sig'ishi qiyin. Lekin jamiyatda yuzlab fenomenlar paydo bo'lgandan keyin yo jamiyat ular bilan murosqa qilishi, yo ularni yo'q qilishi kerak. Shu mulohaza o'rinlimi?**
– Bu tazyil-q'iblarga asoslangan jarayonlar boshqa xalqlarda ham sodir bo'lgan. Yevropa, Germaniya, Fransiya shunday voqealar ku-zatilgan. Biz hali jadidlar harakatining teran mohiyatiga kirib bormadik. Bu ozodlik harakati namoyandalari fransuz inqilobchilariga o'xsha-tish mumkin.

Fransuz inqilobining beshta buyuk prinsipi bo'lgan, shuni qattiq ushlashgan. Xuddi "Jadid" gazetasida "Tilda, fikrda, ishda birlik" shiori bo'lgani singari. Bu juda ulug' gap. Ismoil G'asprali Yevropa, Turkiya, Misrni borib ko'rganidan keyin romanlar yozgan. Bu ma'rifiy asarlar orqali jamiyat hayotiga ham erk, inqilob g'oyalari yopirilib kirib kelavergan. Shu g'oyalar ta'sirida jadidlar ilm-u ulamo, olim hamda ixtirochi bo'lgan, kashfiyotchiga aylangan.

Jadidlarning ixtirolari deganda Ahmadjon Shukriy yodga keladi, u ham Berlinga borib o'qigan yoshlardan bo'lgan. Maryam Sultonmurodova, Xayriniso Majidxonova bilan birga o'qigan. Shu odamning taqdiri ham juda qiziq, men hayratga tushib yuraman. U Haydelbergda o'qigan olim va adib edi. Ahmadjon Shukriy "Cho'lpon Cho'lpondir" degan maqola yozgan. Qarang, fikriy ixtiro bu ham. Cho'lpon ijodini shu maqolada Shekspiring sonetlari bilan muqoyasa qilgan. Shukriy 20-21 yoshli yigitcha bo'lgan u paytda. Tasavvur qilyapsizmi, Shekspir bilan Cho'lponni qiyoslash uchun qancha Yevropa ilmlarini, Gyoteni, Volterni bilishi kerak. Yo'qsa bunday yozolmasdi. Mana, ixtiro. Bu odam Husayn Jovindning "Shayx San'on" tragediyasini Fitratning "Hind itilochilari" asari bilan so'zma-so'z solishtirib chiqqan. Ixtiromi,

fasl bor. "Islomning to'rtunchi ruknikim, ro'zadur, sharh etmak" deb atalgan faslda ro'zaning tartib-qoidallari bayon qilingan. Masalan, onaga bolasi uchun non chaynash ravo ekan aytiladi.

Yana "Favt bo'lgan (ya'ni buzilgan – S. O.) ro'za evazi va kafforati" faslida ro'zani buzib qo'yish "ayb'i yetmish miskinga taom tortish yo oltmish kun ro'za tutib berish yoxud Tangri yo'lida bir bandani ozod qilish bilan yuviladi, deyilgan.

Bu Navoiyning so'f diniy ruhdaqi asarida keltirilgan ro'za ta'rifidir. Garchi shoirning badiiy asarlarida, eslatib o'tilganidek, ishq va uning ramziy timsoli sanalmish may ko'proq kuylangan bo'lsa-da, goh to'g'ridan to'g'ri, gohida esa vosita bilan islom qoidallari, jumladan, ro'za targ'ibiga ham duch kelamiz.

Bu xususiyat "Xamsa"da ham uchraydi.

"Hayrat ul-abror"ning ikkinchi maqolati ayni shu islom arkonini, ya'ni besh farz – iymon, namoz, zakot, ro'za va haj haqida.

Albatta, bir yilda bir oy ro'za tutish – avvalo, me'dani bo'sh qo'yish:

Me'dani xoliliq ila qil to'lo,
Necha xalo anda safodin malo.

Lekin, shoir nazdida, ro'za faqat jism masalasigina emas. Uning uch sharti bor.

Birinchisi, sahardan to kun botgunga qadar yeb-ichmoqdan tiyilish.

Ikkinchisi, badandagi har bir a'zoga shariat yo'li bilan ro'za buyurish:

Soyiri a'zog'a xalal yetmamak,
Shar' xilofig'a shuru' etmamak.

yo'qmi? Shundan ajoyib bir ijtimoiy-badiiy xulo-salar, adabiy uslublarga doir nazariy fikrlar yozib qoldirgan.

Nima uchun turkiy jadid adabiyoti namoyan-dalari chet el hayotiga daxldor voqealarni yoritgan, tarixiy hodisalarni qalamga ola bosh-lagan? Buni men bir misol tariqasida aytayot-ganim boisi, juda yosh bo'lishiga qaramasdan Majidxonova, Sultonmurodova, Shukriylar avlodi haqiqiy ma'noda adabiyotda, san'atda, ilmda ixtirolarga, kashfiyotlarga intilgan. Gazetada jadid kashfiyotchiligi, jadid ruhi degan mavzu ko'tarilishi kerak. Haqiqatda ular kashfiyotchi bo'lgan. Jadidlar adabiyotdan ijtimoiy ovoz chiqib turishini xohlagan jiddiy shaxslar edi. Buni Rauf Parfiga o'xshagan zamondoshlarimiz ilg'ab olgan va shu g'oyalar yuragida, ijodlarida ko'karishini jon-jahdi bilan istagan, shu yo'ldan qaytmagan.

– **Kitoblaringizning birida o'qigandim, bolaligingizni eslaganingizda amakilaringiz novvoy bo'lishganini yozgansiz. Ko'zim-nimning oldida turibdi o'sha tasvirlar: Siz tomosha qilyapsiz, ulardan biri chaqqonlik bilan xampadan xamir uzib, tirsaklari bilan zuvalaga ishlov beryapti... O'sha paytlar, ya'ni 50-yillarda oddiy xalq vakillari jadidlarni bilisharmidi yo unutganmidi? Jadidlar haqida suhbatlar bo'lganmi?**
– Otam rahmatli Qodiriy bilan tengdosh bo'lganlar. Aytib berishardi, milliy harbiy kuchlar tuziladigan bo'lganda Abdulla Qodiriy yosh yigit bo'lgan, otam ham Qodiriylar bilan Samarqand darvoza tomonlarda birga xizmat qilgan ekan. Lekin qo'limda hech qanday hujjat bo'lmagani uchun bu haqda biror narsa deyolmayman.

– **Tahririyatda eskishaharlik Husan degan yigit ishlaydi. U bir kitob olib keldi. "O'tkan kunlar"ning uchinchi bo'limi alohida bo'lib chiqqan 25-yilgi nashr. Qatag'on yillari kitobni choroqqa berkitib, suvab tashlashgan ekan. Xalq o'zi sevgan kitoblarini ehtiyot qilib, saqlab qo'ygan-da. "Nayzangul"**

Har biri o'z shug'lig'a zohid bo'lub,
Man'i xilof ichra mujohid bo'lub.

Bormag'ay-u ko'rmagay-u tutmag'ay,
Aytmagay, eshitmagay-u yutmag'ay.

Uchinchisi, ko'ngilni pok tutish:

Lekin uchunchisi budurkim, ko'ngul,
Chunki erur mahbiti anvori kull.

Pok-u ravonbaxsh havosi aning,
Jilvagahi fayz fazosi aning.

Chunki ko'ngil – ilohiy sirlar xazinasi, shohiy chehra, ya'ni Alloh jamolini aks ettiruvchi oyina hisoblanadi:

Maxzani asrori ilohiy ham – ul,
Oyinayi chehrayi shohiy ham – ul.

Shuning uchun bu ko'zguni turli xayollar zangidan tozalash, shunday asrash kerakki, unda faqat do'st, ya'ni Allohgina aks etsin, undan boshqa narsaning naqshi ko'rinmasin:

Daf' qilib zangi xayolotni,
Asramoq ul nav' bu mir'otni,

Kim anga juz do'st zuhur etmagay,
Balki aning g'ayri xutur etmagay.

"Farhod va Shirin"ning Sulton Husayn Mirzoning o'g'li Abulfavoris Shohg'arib Bahodirga pand-u nasihat tarzida bitilgan 53-bobida shoh bo'lish uchun ilm egallash ta'kidlanadi. Navoiy nazdida, shoh har qanday ilmi o'rganishi kerak. Biroq din ilmi kelganda, uni asosiy manzil aylasin. Chunki bu – asl ilm:

romani haqida gazetamizda e'lon bersak. Topilsa, koshki... O'zi matbuotning vazifasi kashshoflik, degan gap bor-ku.
– Bale, haq gapni aytdingiz. "Jadid"da qishloq xo'jaligi vaziri, katta olim, akademik Ibrohim Abdurahmonov bilan suhbatingizni o'qidim. Mana shu suhbatda u juda ko'p fikrlarni o'rtaga tashlagan. Savollarga ham jahonning eng zo'r olimlari kabi yuksak professional nuqtayi nazardan javob bergan. Sun'iy intellekt haqida ham juda chuqur nazariy masalalarni o'rgangan ekan. "Bizning olimlar shu kunlarda sun'iy intellekt, genomika, seleksiya sohalarida olib borayotgan ishlari faqat O'zbekistonga emas, butun dunyoga katta foyda keltiryapti", degan gapni aytgan. Bu oson gap emas. Olim odam qo'lida aniq faktlar bo'l-masa, gapirmaydi. Bular haqiqiy ma'noda o'sha Fitratlarning, Cho'lponlarning, Qodiriylarning milliy g'oyalarni o'zlashtirgan. O'zbekiston xalqi yaqin yillar ichida shu odamlar sabab nihoyatda katta samarali natijalarga erishadi. Mana shunday odamlar jadidlarning an'analari va milliy g'oyalarining, o'sha kurashlarining natijalari sifatida maydonga kirib kelyapti. Jadidlarning bir o'lmaydigan xususiyati – ular boshlagan ishlarining davomiyligi va hech qachon tugamasligidir.

– **Nazarimda hamma zamonaning o'z jadidlari bordek. Boshqacharoq nom bilan bo'lsa ham, masalan, Ozod Sharafiddinov, Shuhrat, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov timsolida davom etgan bu silsila.**
– Bular juda ko'p. Asqad Muxtor, Omon Matjon, O'tkir Hoshimov, Shukur Xolmirzayev kabi peshqadam yozuvchilarimiz ham yuragida, asarlarida milliy g'oyalar gurkib turgan odamlar edi. Mana, Abdurahmonovni gapiryapmiz, bitta emas-ku ular, to'g'rimi? Yana qancha Abdu-rahmonovlar bor biz bilmagan.

– **Bir suhbatimizda o'sha olimimiz sun'iy intellektning axloqiy jihatlari to'g'risida qay-g'urib gapirib qoldi. Agar haqiqatanam tizim qo'ldan chiqib ketsa, sun'iy idrok vaqti kelib kinolardagidek halokatlar keltirib chiqarishi mumkinmi, deb so'radim. "Bo'lishi mumkin, bu real. Shuning uchun sun'iy intellektga haqiqiy o'zbekning yuragini qo'yish kerak", dedi u. Boya Erkin Vohidovni esladik. U kishi Sizning yoshlik do'stingiz bo'lgan. Qahramon shoirimizning tabiatida kiborlik bilan birga o'ta kamtarlik, yuksak madaniyat va sabr-bardosh, iroda va shijoat, insof va hamiyat uyg'un edi. "Chekkaga surilib" qolgan paytlarida ham biror marta nolimadi. Erkin akadagi daryodillikni bir maqolangizda juda chiroyli ta'riflagansiz. Erkin akadagi shu iroda, shu madaniyat o'sha jadidlardan o'tib kelyaptimkan?**
– Kelyapti, to'g'ridan to'g'ri kelyapti. Erkin akam ko'p suhbatlarida Alixonto'ra Sog'uniyni tilga olardilar. Sog'uniy domla sharq madaniyati, islomshunosligi, Qur'on va hadis ilmini juda chuqur o'zlashtirgan alloma edi. Erkin akam dastlabki g'azallarini yozib tog'alari orqali Alixonto'ra Sog'uniyga o'qitganlarida u kishi ustozlik qilib, yo'l-yoriq ko'rsatgan ekan. Shu-shu, domla Erkin Vohidov ijodini muttasil, izchil sur'atda kuzatib borganiga guvohmiz. Qanday qilib Alixonto'rani

ustoz degan shoirmi jadid g'oyalarining faol davomchisi, izdoshi deb ayta olmaymiz? Erkin Vohidovga bularning hammasi salaflardan meros bo'lib o'tgan.

Jadid g'oyalarini tashigan yozuvchilarimiz, olimlarimiz va arboblarning hammasi ma'lum ma'noda jadid maktabining tarbiyalanuvchisi, shogirdi komili bo'lgan. Ba'zi birlari buni oshkora tan olmagan bo'lsalar ham. Bu millatning yuragidan o'tib kelayotgan va hech qachon o'lmaydigan munavvar tuyg'u.

20-yillarda Germaniyaga o'qishga borgan ilk yoshlar urug'chilik, agronomlik, suv xo'jaligi bo'yicha juda katta ixtirolar qilishgan. Odam qoyil qoladi. Shularning nomi biron yerda aytilmagan, yo ko'ksiga medal taqib qo'yilmagan. Balki, Mirkarim Osimga yoki Toshqinga o'xshab ko'rinmas odam bo'lib yashashga harakat qilishgan. Yo'qsa, Usmon-u Shokirlardek xor-zor, surgun bo'lib, qamoqxonalarda chiritib yuborishardi. Mana, o'shalar ham agronom bo'lsayam, urug'shunos, seleksioner, suvchilik sohasi ustasi bo'lsayam millatimiz gullari, jadidlari edi. Chunki g'oyalar bir nom bilan atalmasligi mumkin, lekin ularning mohiyati yagona. Demak, bir yarim asr narida boshlangan jadid g'oyalar siz bilan biz suhbatlashib turgan davrgacha davom etib kelyapti. Har xil shaklda, lekin bardavom. Millat taqdiri shuni taqozo etadi...

– **Suhbatimiz boshida Prezidentimizning bugungi islohotlari jahon miqyosida e'tirof etilayotganini esladingiz. Turkistonlik jadid-larning maqsadi istiqloq va birdamlik bo'l-gani haqida ham ko'p gapirilyapti. Aslida bu maqsadlarning ro'yobiga qarshilik ko'r-satuvchi, hamjihatlik g'oyasining amalga oshishiga to'sqinlik qiluvchi tashqi kuchlar har doim bo'lganini unutmaslik kerak, menimcha...**
– Fikringizga qo'shilaman, Iqboljon. Tashqi ta'sir hamma vaqt bo'lgan. Davlatimiz rahbari yuksak siyosiy iroda ko'rsatib, jadid bobolarimiz orzu qilgan ishlarni davom ettirayotir. Hayot ruhoniyatiga singdirayotir. Mana, mart oyi oxiri-da Xo'jand shahrida bo'lajak uch tomonlama uchrashuv ham ana shu xalqchil islohotlar-ning amaliy ifodasidir. Qo'shni-qardosh ellar-ning birdamligi, chegaralardagi nizoli hududlar xususida hamjihatlikda yakuniy qarorning qabul qilinishi, eng avvalo, ulug' ne'mat – tinchlikning barqarorligini, qolaversa, mintaqa salohiyati bilan birga, uning kuch-qudratini-da mustahkamlaydi. Bu esa o'z navbatida Markaziy Osiyo, xususan, Yangi O'zbekistonning rivojlanishi bosqichida yangi ufqlarni ochadi. Ular bari jadidlar orzu qilgan ufqlar...

– **Rahmat, ustoz. Siz bilan suhbatimizni hali ko'p davom ettiramiz. Ulug' ayyom kunlari Sizga minglab mushtariylar nomidan kuch-quvvat, tani sihatlik va toshqin ilhom tilaymiz. Suhbatdosh: Iqbol MIRZO**

 Ushbu QR-kodni skaner qilib suhbatni video shaklda ko'ring!

JISM VA RUH MAYLI

Har kimgaki ko'p taom yemak fandur,
Bilgilki, najosatqa tani maskandur.

Qorning bila do'st bo'lmasang ahsandur,
Nevchunki, er o'g'lig'a qorin dushmandur.
Gap shundaki, to'qlikning ma'naviy ziyoni bor. U kishi ko'ngilni qattiq qiladi:

Ko'p to'ma yer el arosidin ixroj o'l,
Savm ahli aro bosh qo'y-u sohibtoj o'l.

Kim qalbi raqiq erur, anga muhtoj o'l,
To'qluq chu ko'ngulni qatiq aylar, och o'l.
Ko'p ovqat yegandan keyin kishining lohas, demakki, beparvo bo'lishini zamonaviy tibbiyot ilmi ham tasdiqlaydi. Chunki bunda tananing butun kuchi ovqatni hazm qilishga ketadi. Qorin to'q mahali kuchli jismoniy mehnat qilish ham, jiddiy aqliy faoliyat ham qiyin kechadi. Butun diqqati me'daning ishlashiga qaratilgan tana miyaga yetarli miqdorda ozuqa, ya'ni qon yetkazib berolmaydi. Lohaslik – ana shundan. Beparvolig'u befarqlik esa ko'ngli qattqlikning o'zginasi. Shuning uchun ham Alloh yiliga bir oy ro'za buyurgan. Ota-bobolarimiz buning qadrini baland tutgan. Ro'zadan ruhga sofiik, badanga esa salomatlik kelishi aniq:

Doim tut o'zungga ro'zaning mehnatini,
Kim ruhqa yetkurur safo davlatini,

Sihhat tilasang, qilg'il aning niyatini,
Kim ro'zada qo'yдилar badan sihatini.

Sultonmurod OLIM,
filologiya fanlari doktori



HIKOYA

Bu dunyoda faqat ikkisi bor edi. Xuddiki Momo Havo bilan Odam Ato kabi. Va yana bahor bor edi. Bahor o'zi bilan birga baxtni, shodlig-u muhabbatni olib keldi.

– Oxirgi nafasgacha birga bo'lamiz!..

Kaftlarida turgan yuraklarini bir-birlariga tutadi.

– Bu senga.

– Bu sizga.

Momo Havo bilan Odam Ato bir-birini qanday suygan bo'lsa, ular ham shunday suyishardi va ardoqlashardi bir-birlarini.

Keyin haqiqiy hayot boshlandi. Uy-ro'zg'or, oshxona-tomorqa, og'ilxona va paxta terimi... Tirikchilik tashvishi har kuni yangidan boshlanadigan voqeaga o'xshaydi. Kecha ham shu tashvish, bugun ham, hatto ertaga ham...

Eri erta bahor kunlari bo'zga o'rog'lik nimadir olib keldi.

Juvon hayron.

– Ko'chat, – dedi eri uning savolchan nigohlariga javoban. – Anor ko'chati. Noyob turi ekan. Kelasi yili hosil beradi. Hovlimizga ekib qo'yaman.

Keyin hovlining qumoq tuproqli, nomi yetarli bir burchiga ko'chatni suqib qo'ydi.

– Anor yozda gullaydi, kuzda meva tugib yetilib pishadi. Ana o'shanda mevalaridan mazza qilib to'yib-to'yib yeysan. Qara, shoxlarida tikanak kam. Shirin anorda shunaqa bo'larkan. Kelasi yilgacha senam boshqorong'i bo'lib qolarsan, a?..

Eri o'zi bilmagan holda u bilan anorning qismatini birlashtirib qo'ydi...

Bu shunchaki daraxt emas, balki ishq daraxti edi.

Kechalari erining ishdan kelishini kutarkan, mitti ko'chatning nafasini, kun sayin barg chiqarganini, shoxchalari tarvaqaylab atrofga yoyilayotganini eshitib yotardi.

Ko'chatning bo'yi cho'zilib, shoxlari tikanakli bo'lib qoldi.

Har kuni yuragi hapriqqancha uni kuzatardi. Salsabil bulog'idan to'yib suv ichayotganday, daraxt po'stlog'ining rangi bilinar-bilinmas o'zgara boshladi. Jigarrang shoxlarda nimyashil novdalar nish urayotgandi.

Hadamay ulara nozik jajjigina yashil yaproqlar yoziladi. Barglari mayda, nashtar-simon...

Gulg'unchalarning yengil nafas olishlari eshitila boshladi.

Hadamay ular orasidan to'p-to'p qizil g'unchalar ochiladi!

Ayolning anor yegisi keldi. Bu xabarni eshitgan kuni eri bozordan anor ko'tarib keldi. Bir dunyo. Ol, istaganingcha ye. Ammo... ayolning ko'ngli bog'dagi anor mevasini tilayotgandi.

– Mening bahorim keldi, sening yozing qachon keladi?

– Yozga maktub yubordim. Kelar hadamay...

Devordagi soat uni shoshirgani kabi u ham daraxtni shoshirdi. Bo'la qol! Mevalaringni tuga qol! Ko'nglim faqat sening mevalaringni tusayapti. Shunday tusayaptiki...

Quvonchning umri qisqa bo'ldi. Qornidagi homilaning ham. Olti oylik bo'lganida nobud bo'ldi.

– Og'ir narsa ko'targansan, – deya yozg'irdi eri uni yupatish o'rimga.

Qaynona bo'lmish tarafini olgan bo'lib chandib qo'ydi.

– Voy, nimaga kelinga zarda qilasan? Bu uydag'og'ir ko'taridigan qanday yuk bor? Men bilan singillaringdan boshqa!

Qaynona bo'lmish hali juda qarib ketmagan, anchagina dali-g'uli ham, xuddi ming qo'yi boyning xotiniday kerilib, sallona-sallona yuradi, lekin basharasi uzoq vaqt o'tob yuzini ko'rmagan so'lg'in olxo'rini eslatadi.

Ikkala qaynsingil ham o'tizga yaqinlashib qolgan, ammo ikkisi ham nega sochlari to'kilayotgani haqida o'ylab ham ko'rmaydigan laqma xotin misol beg'am edilar.

Butoq shoxlarida kurtak nish urib, mayin-mayin yaproqchalar uch berib qoldi. Hadamay g'unchalar bo'rtib gul ochadi...

– Hoy kurtaklar, tezroq ochiling... Hoy g'unchalar, jilmaying tezroq... Bahorim, mening bahorim, tezroq kelsang-chi...

Nihoyat... Anor gullariga sovchilar – kapalaklar, asalarilar kela boshladi. Kun bo'yi butoqning boshidan g'o'ng'llash arimaydi.

Tunda shoxlarda tunab qolgan shabada uyg'onib, qip-qizil gulg'unchalarni allalay boshlaydi.

Tongda quyoshning oppoq nurlari gulbarglarning yuzini silaydi.

Novdalaridagi dasta-dasta gullar kundan kun ko'paygandan ko'payib qulf ura boshladi.

Lolarang gullar baxtdan ko'zlari namlangan juvon kabi suluvdan suluv edi.

Ikki yil o'tib juvon yana homilador bo'ldi. Ammo... bunisi ham turmadi.

Anor butog'i ham har yili qiyg'os gullaydi-yu... mevasidan darak yo'q.

Daraxt yupanchga muhtoj boladay ingraydi. Tun bo'yi devorlar nimagadir zirillaydi.

Uyi yonida har kuni qo'shni bolalar ko'ptok surishadi. Qiy-chuv avjiga chiqadi. Yig'lagani kim, kulgani kim...

G'amginlik bir qo'shiq kabi lablariga qo'ndi. So'ng ko'zlariga... yuzlariga...

Tinchlan, yurak. Nechun buncha notinch tepasan? Nimaga va qayerga oshiqasana? Hali oldimizada imkonimiz mo'l-ku, kutamiz, kutamiz va yana kutamiz... Bizga atalgan mitti qushchalar hali uyquda. Ularning uyg'onishini kutmaymizmi?.. Mitti qushchalar uchib keladi. Axir bejiz tushlarimga kirmayotgandir... Kutamiz, dilim, kutamiz, suku-natga g'arq bo'lib...

– O'ksinma, anorginam. Bu dunyo umidli dunyo. Kelasi yil ikkalamiz ham boshqorong'i bo'lamiz, xudo xohlasa!..

Biroq juvon hadeganda boshqorong'i bo'lavermadi.

Bahor ketidan bahorlar o'tdi hamki, xush-xabar qanot yozavermadi.

Nihoyat juvon homilador bo'ldi yana... va... yana tuproqqa topshirdi...

– Ajrashaylik... – dedi kunlarning birida eriga azbaroyi yaxshilik tilaganidan. – Anavi anormiyam kesib tashlang!

– Men shunday noyob anorga ega insonman. Shunday bo'lgach, nega uni kesib tashlarkanman! – deb javob berdi eri.

Juvonning mehri iyidi eriga, ammo uning aybsiz ekanini biladigan odamday dadil javob berganidan ajablandi.

Shunga qaramay, umidini uzmad. Tushlarida belanchak ko'raverdi, ko'raverdi... Xuddi anor qiyg'os gullagani kabi u ham homilador bo'laverdi, bo'laverdi... Xazon bo'lgan gullarni yig'ib olib tandirga tashlashdi. Uning nargis ko'zli gullarini esa... tuproqqa...



Sun'iy intellekt chizgan rasm.

Xuddi begona inga kirib qolgan qushday his qila boshladi o'zini...

Dam-badam yuragi uvishib butaga tikilib, uning shoxlariga diqqat bilan razm soladi.

– Menga o'xshab sen ham mushtoqmisana? Nazarida, daraxt go'yo osmon sari qo'l cho'zib, iltijo qilayotganga o'xshardi – bamisoli bahorning kelishiga muntazirday.

– Bahorim, kela qolsang-chi! Ey g'unchalar, tezroq jilmayinglar...

Hamma narsa ko'ziga belanchakka o'xshab ko'rinadi. Hatto shamol ko'tarilganda daraxt soylari ham xuddi belanchakdek tebranayotganday tuyuladi.

Havo dim. G'ir etgan epkin yo'q. Tun undan hatto shabadani ham darig' tutadi. Qaynoq hovur nafasini qaytaradi. Uning esa butun vujudi titraydi, xuddi sovqotayotganday.

Tez bo'l, tez bo'l, shoshil!

Jimir-jimir qilayotgan yulduzlar orasidan kimdir mo'ralab turganday juvon osmonga qarab nola qila boshladi: Nega mening ikkala go'lim ham, bag'rim ham bo'm-bo'sh?..

Sabrimni, sabotimni sinamoqchimisana?

Yulduzlar orasidan mo'ralab turgan zot quloqlarini bekilib, o'zini panaga olganday, birdan osmon qorayib ketdi. Jimir-jimir qilayotgan yulduzlar ko'rinmay qoldi. Zum o'tib momoqaldiroq qaldiradi. Chaqmoq chaqdi, ammo uning bag'rida ziyodan asar yo'q edi. Bu zimistonda etni junjiktiruvchi nimadir borday.

Tongda yig'i ovozdin uyug'ondi.

Deraza ortida kimdir xo'rsingancha achchiq-achchiq yig'lardi. Keyin uzoqlashayotgan qadam saslari...

O'rnidan turib derazani ochdi.

Ko'cha boshida uning bahori yashil etaklarini sudragancha behol ketib borardi...

Baxtga to'yman, baxti yarim bahor...

Eshik taqilladi.

Ostonada mayin jilmayib yoz turardi:

– Ko'chimni tushiraveraymi?

Hovli katta edi. Endi butun ko'ch-ko'rni bilan joylashib olgan yozning ertaklari boshlangan: erta-yu kech bir zum tinim yo'q. Ro'zg'or yumushlari, dala, tomorqa va paxta...

go'yo azal mashshog'i har kuni bitta kuyni chalayotganday!

Dugonalari unga ochiqdan ochiq havas qilishardi. Sening ering o'rinda bizniki bo'lganidami... allaqachon javobimni berardi yo ustimga xotin olardi!

Dugonalarning tillaridan uchayotgan so'zlar samimiy edi, ammo uning yuragiga anor tikaniday sanchilardi.

Darvoqe, eri chindan ham ko'ngli daryo odam... yo'q, yo'q, ummon! U shunday bir ummonki, oldida eng katta daryo ham kichik bir irmoqdek gap.

Eriga daxldor nima bo'lsa, hammasi unga yoqardi. Hatto dastro'moli ham. Dunyoda erkak zoti ko'p, ammo eri uning uchun bittagina, yagona edi.

Kunlar bir-biriga tutqich bermay o'tar, devordagi osma soat asta-sekinlik bilan sezdirmay uning umrini yamlamay yutardi.

Keyin xonasiga kirib eshikni taraqatlab yopdi.

Juvon qaynonasi aytganiday "irimi"ga bo'lsa-da anorga ozor yetishini istamasdi. Axir bu... kasal xotinga endi keraging yo'q deyish bilan baravar emasmi?

Birozdan keyin qaynsingilning kichigi kelib akasini onasi yo'qlayotganini aytdi.

Eri "tergov"ga chaqirilgandi.

Keyingi safar g'irt mast erining o'zi boltani qo'lga olib anorning oldiga yugurib bordi-da, daraxt tanasini zarb bilan tepsa ketdi.

– Bexosiyat! O'tin bo'lishdan boshqaga yaramaydi! So'ppayib turgandan ko'ra o'tin bo'lgani yaxshi... Hoziroq chopib tashlayman! Hammasi jonga tegdi! Jonga tegdi!..

G'azab eriniki edi, ammo so'zlar qaynona bo'lmishniki...

Tepki zarbidan daraxt tanasi zirillab ketdi, anchagacha dir-dir titrab turdi. Go'yo o'ksinib-o'ksinib yig'layotganday...

Kutilmaganda qaynona bo'lmish va qaynsingillar dod solgancha eriga yopishdilar.

– Daraxtda ne gunoh? Nega unga zahringni sochasan? – deya o'g'lining qo'lidan boltani tortib olarkan qaynona bo'lmish juvon to-monga qarab qo'ydi. – Sabr qil, meva berib qolar!

Keyin bexosdan kulib yuborib, o'g'lga tanbeh berdi.

– Ha, qilig'ing qursin... Odamni qo'rqitib yubording-ku!

Qaynona bo'lmishga qo'shilib qaynsingillar ham kulishadi. Hammalarining yuzida tabas-sum va kulgi, go'yo hozirgina bo'lib o'tgan dilxiralik yuz bermaganday...

Go'yoki bu safar ham "irimi"ni qilishdi. Ammo juvon qaynona bo'lmishning o'tkir nigohlaridan "Ko'rdingmi istasam o'g'limni ne ko'yga solishimni? Men bilan o'ynasha ko'rma!" degan ma'noni uqdi.

Jumboq bu odamlar. Yuz yil bir uyda yashasang-da, bu jumboqni yecholmaysan...

Qaynona bo'lmish ham, qaynsingillar ham indamay uyga kirib ketishdi.

– Mening bahorim tugayapti. Sening ham yozing tugadimi?

Sovchi kutaverib anor gullari ham sarg'aydi. Kuzning sariq ko'yagi kabi orzular ham, umidlar ham sarg'aydi.

Xazon hidi anqirdi...

Tengqurlari avval sunnat to'y qilishdi. Keyinroq borib ulani kelin to'yga, qiz oshiga taklif qiladigan bo'lishdi. Eri do'stlarining hech birining to'yidan qolmasdi. Kerak bo'lsa, qamishdan bel bog'lab xizmat qilardi. Lekin biror marta ko'ngli o'ksib, mahzun tortib kelmagan. Hamisha bahor quyoshiday iljayib turar, yuz-ko'zlari baxtiyorlikdan chaqnardi. "Meni o'ylab o'zini shunday ko'rsatyapti. Aslida buning ham ichi to'la tutun!" Eri uning uchun mehr-muhabbat va sadoqat timsoliga aylanib borardi.

Juvon tug'ish yoshidan o'tgandi. Ammo hamon tushlarida belanchak ko'raveradi, ko'raveradi... Anor daraxti ham har yili qiyg'os gullayveradi, gullayveradi... Xazon bo'lgan gullarni yig'ib olib tandirga tashlashadi. U esa... ikki qo'li bir tepsa bo'lgancha qolaveradi.

Ko'p narsalar unchalik bilinmagan, sezilmagan ekan. Mana endi ayon bo'lyaptiki...

Hamma hamon erini yaxshi odam derdi.

Ammo ayol... endilar o'sha yaxshi odamning nigohlarida bo'rining yovuzligini ko'radigan bo'lib qoldi. Erining osilgan baqbaqasi va shishib ketgan ko'z ostlari uzum tokda zardobi chakillab mis tog'oraga tomib turadigan suzma xaltani esga solardi. Chak-chak... chik-chak...

Anor shoxlarida esa son-sanoqsiz alvon gullar bamisoli gulxanday qip-qizil nur sochadi. Go'yo yer bilan osmon birlashib ketganday borliq shafaqrangga bo'yalgandi.

Anor daraxti sehrlil gullari bilan unga mag'rur va tik qarab turardi.

Ma'sum gullari endi ayolning yurak-bag'rini tilka-pora qilardi.

Birdan ayolning ko'zlari kattalashdi. Anorning olovrang shoxlari aro imillagan bir o'rgimchak to'r to'qirdi. Go'yo uning borligidan, to'r to'qiyotganidan boshqalar bexabarday o'rgimchak sokinlik va xotirjamlik bilan o'z ishini davom ettirardi.

Seskandi. Umidsizlik to'lgini yuziga urildi. Yoqasi tor kelib qolganday yuragi siqildi.

Shu kuni ilk bor erining g'udda boylab, yog' bosgan bo'yniga ijjir'anib qaradi. Eri buni sezdi, ammo parvo qilmadi.

Tengqurlari avval aqiqa qilishdi, so'ngroq nevaralarning sunnat to'yi harakatiga tushishdi.

Ayolning silliq peshonasiga dangasaning dastxatiday – aji-buji ajinlar tushdi.

Asta-sekin erining unga bo'lgan qiziqishi

susayayotganini sezib qoldi. Anorni-ku butkul unutgandi. Gohi mahallari kun bo'yi uyda bo'lsa-da, anor haqida so'ramasdi, ayol atay gap ochganida eshitishni ham istamasdi. Go'yo o'zi olib kelib ekanan butoq bu olamda bo'lmaganday...

Bora-bora ayolning so'zi, xatti-harakati jig'iga tegdimi, hatto bir dasturxon ustida o'tirish ham azobga aylanib qoldi...

Ertalab:

– Nonushta tayyormi?

Kechqurun:

– Ovqat tayyormi?

Kechasi:

– Men bugun barvaqtroq uxlayman.

Ayol eriga javoban nimadir deydi, aytmoqchi bo'lgan so'zlari bo'g'zini bo'g'ib qo'yganday ovozi shikastalik bilan xirillab chiqadi.

Mehr-muhabbat va sadoqat ham odamning me'dasiga tegarkan-da...

Erining bo'ynidagi bo'qoq kabi o'zini ortiqcha va keraksiz his qila boshladi.

– Agar men ayol bo'lib tug'ilmaganimda, albatta, senga o'xshab anor bo'lardim, – deb yig'ladi ayol daraxtni quchoqlab.

– Mening ham o'tin bo'lgim kelyapti... – degan ovoz eshitildi daraxt q'aridan. Keyin ovozi baralla qo'yib yig'lab yubordi.

Uning nolasini eshitishni istamagan osmon yuziga bulut chodrasini tortdi. Quyosh yugurib borib chodra ortiga bekinib qoldi.

Ayol daraxtning ko'zyoshlardan nam tortgan tanasini quchdi.

– Ketsammikin... Nima deysan?..

– Peshonamizga faqat sabr yozilganmi...

Odatda, ketaman degan odamga bahona ko'p bo'ladi. Ketish uchun atrofida yo'llar-u bahona-sabablar ham. Ammo qayoqqa boradi?.. Ota-onasi bor. Opalari bor. Lekin o'zini hech kimi yo'qday his qiladi. Agar ota-onasiga orqa qiladigan bo'lsa, allaqachon bu xonadondan ketishi kerak edi.

O'zi xohlamadi!

Shuncha gap-so'zlarga qaramasdan o'z uyi unga dunyodagi eng beg'am joyday tuyulardi.

Avvallari erini faqat yaxshi ko'rardi, endi bo'lsa ham yaxshi ko'radi, ham undan qo'rqadi.

Qafasga o'rgangan qushdan farqi qolmagandi. Itoatkorlik ramziga aylanib borardi.

Baxtsizlikni o'ziga yo'latmaslikka qancha urinmasin, ro'y bermasligini istagan ko'ngilsizliklar yuz bera boshladi.

– Bu... qachon ketadi?.. Itniyam haydasa ketadi-ku...

– O'zi bilib... bir nima demagandan keyin... men nima deyman?

– O'g'lingning bo'yi cho'zilib qopti. Qachon elga ma'lum qilib, qo'lini halolaysan?..

Qanoti kuygan kapalakday bir zumda adoyi tamom bo'ldi.

Shu oqshom tushida oy bilan quyosh birga chiqqanini ko'rdi...

Ayol anor bilan xo'shlashdi.

– Omon bo'l. Endi qololmayman... Men uchun hammasi tugadi...

Ayol oh tortdi. Bu xo'shniq shu zahoti daraxt tanasiga o'tib, uning ichini ag'dar-to'ntar qilib yubordi: xiyonat hamma zamonda davr-u davron surganmi?..

Kun yondiraman derdi. Ammo ular... ikkisi ham ayozda qolganday qaltirashardi.

– Shunaqa... – dedi ayol alam bilan kulimsirab, – Bizning ulushimiz teshikkul-chaning teshigi-yu puch yong'oq ekan...

Ayol tugunini bag'riga bosganicha ko'cha eshik tomon yurdi.

– To'xta... sabrimiz toshdan ham qattiq ediku...

Daraxt dahshat ichida uning ortidan tikildi. Shoshma... Birga ketamiz deganday qo'llarini oldingga ko'z'di.

Va... birdan nafas olmay qo'ydi. Keyin yelkasidan og'ir yuk bosganday shoxlari egila boshladi. Xuddi bir yeri og'riyotganday tanasi buchkaydi.

Yashnab turgan gullari to'kila boshladi.

Avvaliga bitta-bitta... ishq to'la mitti yurakchalar uzilib tushdi, tushaverdi.

Keyin go'yo qizil qor yog'ayotganday minglab qizil yulduzchalar yerga to'kildi.

– Gumrohman... gumroh... – degan nola eshitildi bag'ridan.

Daraxt atrofida o't yoqilmagan bo'lsa-da, birdan uning shoxlari qorayib, shamol turganday tebrana boshladi: sovun ko'pigidan qasr qurmoqchi bo'libman-a...

Bir zumda tanasi qurib-qovjiradi, go'yo xazon to'foni qo'pdi-yu, yerdan girdibod ko'tarilib, daraxtni quyuq to'zon qoplad va u qip-qizil alanga ichida qoldi.

Bir kapalak telbalarcha uning tegrasida aylanardi.



MUALLIF HAQIDA: Zulfia QUROLBOY qizi Jizzax viloyatida tug'ilgan. Jizzax pedagogika institutini bitirgan.

"O'



27-MART - XALQARO TEATR KUNI

PARVOZING BALAND BO‘LSIN, “PARVOZ”!



Malika Shomirzayeva teatr aktyori bo‘lishni orzulang, Eski shaharning Xadra maydonidagi Bolalar ijodiyoti uyi (o‘sha paytlari – pionerlar saroyi deb atalardi)ga sakkiz yil qatnadi. Mashhur rejissyor Ergash Masafoyevga shogird tushdi. Tushida ham, hushida ham sahnani ko‘rdi. Biroq taqdir kemasi butkul boshqa sohil tomonga burilib, u Toshkent davlat universitetining o‘zbek filologiyasi fakultetida tahsil oldi.

Hayot teatrining boshqa bir sahnida esa Rayhon Kulunchakova ham rejissyor bo‘lmoq xayolida yonmoqda edi. Ajabki, uning-da orzusi bilan hayot yo‘llari boshqa-boshqa tushdi. Kino va teatr desa tomdan tashlashga tayyor Rayhon ham ota-ona rizosi uchun o‘qituvchilik qilishni to‘g‘ri deb bildi. Ikki san‘atsevar Toshkentning ikki burchida faoliyat olib bordi, yosh avlodga uzoq yillar ta‘lim-tarbiya berdi. Bugun ular poytaxtdagi yuz bilan yuzlashay deb turgan maktabda dilni dilga, qo‘lni qo‘lga berib ishlaymoqda.

Malika opa 2018-yili Toshkent shahridagi 19-umumta‘lim muassasasiga ishga keldi-yu, maktab rahbari Rayhon Kulunchakovaning teatr san‘atiga xayrixohligidan o‘zida yo‘q quvonib ketdi. O‘lis bolalikning ushalmay qolgan orzulari qanotlandi. Boshlang‘ich sinflarda o‘zbek tili va adabiyoti fanidan dars berar ekan, ta‘lim jarayonlarida bolajonlarning she‘r va hikoyalarni ifodali o‘qishlariga qarab ilhomlandi. Ular orasida san‘atga iqtidori borlar oz emasligini ilg‘adi. So‘ng har xil musobaqalar tashkil qildi, bolalarga o‘qigan matniga qarab suratlar chizdirdi, ularni rollarga taqsimlab, pyesa o‘qita boshladi. Shu tariqa Malika opa mashg‘ulot o‘tayotgan sinf go‘yo sahnaga aylana bordi.

U o‘quvchilaridan jahon va o‘zbek adabiyoti durdonalarini ko‘proq o‘qishni talab qilar, asarlar yuzasidan davra suhbatlari uyushtirardi. Lekin bu harakatlari hali kamdek tuyulaverar, o‘quvchilarining badiiy asarni shavq bilan o‘qishini, syujetlar ichida yashashini istardi. Buning uchun ularni darsliklardan ortib, haqiqiy adabiyot olami bilan tanishtirmoqchi bo‘ldi. Shu maqsadda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga, Adiblar xiyoboniga yetaklab bordi. Adabiyotning tarixiy

dunyosiga tushib qolgan o‘quvchilar u yerda asarlar va mualliflarga oid o‘zaro savol-javoblar o‘tkazishib, hech qanday tayyorgarliksiz sahnaviy epizodlar ham namoyish qilishdi. Malika opaning esa ilhomi jo‘sh urib, yuragidagi teatr armoni bosh ko‘tardi.

– 2020-yili maktabda “Parvoz” bolalar teatrini ochdik, – deydi Malika opa. – Birinchi sahna asarimiz “Alisherbek va Husayn” spektakli bo‘ldi. Keyin G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asaridan parcha qo‘ydik. Maktabimiz rus tiliga ixtisoslashgani uchun asarni bir parda ruscha, bir parda o‘zbekcha sahnalashtirdik. Keyinroq til bayrami arafasida Sulton Jo‘raning “Tinish belgilarining majlisi” asarini namoyish qildik. O‘quvchilarim teatrga shunchalik qiziqib ketdiki, personajlarga o‘zlari kiyim topishdi, suratlar chizishdi, sahna dekoratsiyalarini ham o‘zlari tayyorlashdi. Teatrimizning aktyori ham, rassomi ham, rejissyori, operatori ham o‘zlari. Qolaversa, targ‘ibot-u tashviqotini ham zimmasiga olishdi. Repetitsiya jarayonida bir-biriga xatolarini aytishib, kamchiliklarini ko‘rsatishadi. Demak, tanqidchilar ham bor oralarida.

Bir gal Usmon Nosirning “She‘rim, yana o‘zing yaxshisan” sonetini sahnalashtirdik. Juda ajoyib chiqdi. Bolalar o‘z ijodiy ishlaridan zavqlanishdi. Ayniqsa, navoiyxonlik kunlarida tayyorlangan badiiy kechamizga taniqli san‘atkorlarning tashrif buyurgani ularni judayam ruhlantirdi.



Darhaqiqat, Malika opaning “Parvoz”i tomoshalariga Yoqub Ahmedov, Erkin Komilov, Gavhar Zokirova, Elyor Nosirov, Muqaddas Xoliqova, Fotima Rejimetova, Lola Eltoyeva, Dilnoza Kubayeva, Hilol Nasimov, Bahodir Murodov singari el ardorg‘idagi aktyor va rejissyorlar bot-bot tashrif buyurib, rus maktabining o‘zbek teatri faoliyatiga yuqori baho berishgan.

Ushbu ta‘lim muassasasida ta‘limga ijodiy yondashuv o‘ziga xos an‘anaga aylangan. Yaqinda “Parvoz”ning besh yilligi munosabati bilan “Teatr – ibratxonadur” nomi ostida tashkillashtirilgan tadbir

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, professor Munavvara Abdullayeva, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, rejissyor Zamira Begimqulova, taniqli kinoshunos Oybek Kapadze, badiiy so‘z ustasi Botir Muhammadxo‘jayev ishtirok etib, maktab teatrining parvozi bundan ham baland bo‘lishiga ishonch bildirishdi.

– Prezidentimiz maktablarda teatrlarni tashkil etish kerakligini aytgapti, – deydi Munavvara Abdullayeva o‘z so‘zida. – Xo‘sh, maktabga teatr nega kerak? U o‘quvchiga nima beradi? Avvalo, yoshlar ijod va izlanish bilan mashg‘ul bo‘ladi, o‘z ustida ishlaydi, kitob o‘qiydi, ko‘pchilik o‘z so‘zini baralla ayta olishni va yana hamjihatlikni o‘rganadi. Rol ijro etish jarayonida ba‘zan biri ikkinchisining sochini o‘rib qo‘yishiga to‘g‘ri keladi. Yana biri boshqasini grim qiladi yoki yana qaysidir biri sherigining ust-boshini to‘g‘rilashga yordamlashadi. Shu tariqa ular o‘rtasida o‘zaro hurmat kuchayadi. Shuningdek, yoshlar kitobxonligi, ma‘naviyat va ma‘rifat o‘sadi. Meni rusiyzabon bolalarning o‘zbek tilidagi mahoratli ijrolari, rosti, quvontirdi. Bu kichik teatr kelajakda yanada ravnaq topishini, faoliyati kengayib, ijodiy repertuarlari tarbiyaviy ahamiyatga ega, tarixiy asarlar bilan boyishini tilayman.

– “Bir g‘azal” deb nomlangan teatrlashtirilgan turkum qilmoqchimiz, – deydi Malika opa. – Har o‘n-o‘n besh kunda bitta g‘azalni etyud shaklida

sahnalashtirishni rejalashtirganmiz. Bundan tashqari, jadid bobolarimiz hayotidan insensirovkalar tayyorlamoqchimiz.

Ha, Malika Shomirzayeva teatrida tomoshabin ayni damda ko‘p bo‘lmasa-da, bir maktab teatri uchun yetarlicha nufuzga ega. Aslida, har kim o‘z ishini xuddi shunday yurakdan sevmog‘i kerak. Oddiy tosh ishtiyoq bilan yo‘nib-taroshlansa, muhtasham san‘at asariga do‘nadi. Insonning o‘z-o‘zini kashf etmog‘i ham ana shu beta‘ma muhabbatiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Muhabbatli ko‘ngil esa dunyo kengliklari uzra parvoz etaveradi.

Muhayyo RUSTAM qizi

BADIA

Ko‘klamda odam jonsarak bo‘lib, bir joyda o‘tirolmaydi. Olam yasharib, yerning harori toshib, tiriklik nafasi yoyilgan bu farahli kunlarda tor xonaga sig‘may qolasan. Axir odam tuproqdan yaralgan, ona tabiatning bir bo‘lagi-da. Bunday chog‘larda “hayo-huyt” deb bir yoqlarga sayr-u sayohat qilging keladi. Shunday emasmı, qadrdon? “Bahor ayyomidur dag‘i yigitlikning avonidur” deb xirgoyi qilgancha Farg‘ona tomonlarni bir aylantirib kelaymi?

VODIYLARNI YAYOV KEZGANDA...

Dovondan oshib, bo‘yningizni cho‘zib qarasangiz, bepoyon kenglikda yastanib yotgan vodiya ko‘zingiz tushadi. Uzoq-uzoqlardan moviy ko‘lning sokin mavjlaridek barqurgan bog‘larning jimir-jimirini ko‘rib, etingiz-da jimirlab ketadi. Tuyqus dimog‘ingizga nafis gulbarglarning xushbo‘yi urilganday, o‘zga bir iqlimning masih havosini tuyganday bo‘lasiz. Pastga enib borganingiz sari viqorli tog‘lar asta-sekin bo‘taday cho‘kkalab, qir-adirlarga ulanib ketadi. Istiqbolingizga qadim va navqiron Ho‘qandi latifning katta-kichik qishloqlari birin-ketin peshvoz chiqib kelaveradi. Shaharga kirib borarkansiz, bir zum tarix va kelajak kesishgan chorrahada turib qolasiz. Bir tomonda masjid qubbalari, o‘rda-yu minoralar, bir tomonda yangicha uslubdagi oynavand binolar; mumtoz va zamonaviy imoratlarining ajib bir uyg‘unligiga shohid bo‘lasiz. Ayniqsa, katta bozor yonidan o‘ta turib, izdihom g‘ala-g‘ovuridan beixtiyor o‘tmish davrlarning ruhini his qilasiz. Karvonsaroylar, ulkan qo‘qon arobaları, hunarmandlar do‘koni, temirchilar ustaxonasi ko‘z oldingizda jonlanganday, sandonga urilgan bosqonning bo‘g‘iq jarangi qulog‘ingizga chalinganday bo‘ladi...

Yo‘l-yo‘lakay choyxonada qo‘noq bo‘lib, oyoqning chigalini yozib, keyin yana otlansak ham durust. Axir hali manzila yetganimizcha yo‘q, otam.

Xayr, Qo‘qon muzofotidan chiqib, qadim Ipak yo‘liga tushib olasiz-da, boboquyoshni mo‘ljallab ketaverasiz-ketaverasiz. Yo‘l yursangiz ham mo‘l yurib, nihoyat Farg‘ona darvozasiidan xiyla berida, Marg‘ilon bekligiga yetar-yetmas oraliq ma‘voda men sizga ko‘rsatmoqchi bahavo maskanning o‘zi manaman deb bo‘y ko‘rsatadi. Ana endi bu yerlarning ta‘rifini muxtasar aytсам, o‘tning bog‘lig‘i, suvning tinigi, mevaning sarxili, jonning huzuri xuddi shu yerda! Uzunmıng naq asali, o‘rikning novvot-qandi, shirin-shakar shaftoli-yu gilos, anor-u anjir, tarvuz-qovun deysizmi, e, xullas, nozne‘matlarning hamma-hammasidan topiladi. Qalampirning shirini, ana boring, suvli-selli bodring bilan turpning vatani ham shu joylar-da, akasi! Bu so‘lim go‘sha – qadimda olitta katta ariqdan suv ichib tomir yoygan Oltiariq o‘lkasidir. Qani-qani, jannatmonand diyorga xush kelibsiz, vatandosh!

Katta yo‘lning ikkala cheti ketaketguncha bog‘ – adog‘i ko‘rinmaydi. Agar shoir bo‘lsangiz, “Po‘lat o‘ngirini ko‘targan qirlar”ga tutashib ketgan bog‘larni qal‘a devoriga tirmashib chiqayotgan qora choponli, oq durrallı lashkarga o‘xshatgan bo‘lardingiz. Qush parvozidan kuzatganingizda edi, qo‘ng‘ir qirlar etagidan boshlab, u yog‘i Yozyovon cho‘llariga ulanib ketgan bog‘-u rog‘, dala-tuzni ko‘rgan bo‘lardingiz. To‘rt tomondan shudorglangan taram-taram dalalar to‘planib kelib, “kunga qaragan turkona kuyin” oldida taqqa to‘xtaydi. Eylan bir-biriga tutashib ketgan ko‘chalar, qishloqlar...

Shu turgan joyimizdan o‘ngga burilib, istagan bir mahallaga ichkarilang, birinchi ko‘zga tashlanadigan narsa – ko‘chaning boshidan oxirigacha cho‘zilgan ishkamlar. Qishda ko‘mib qo‘yilgan toklar allaqachon qaddini rostlagan, novdalari so‘ritok uzra tarab qo‘yilgan. Tong sahar qiz-juvonları suv sepib supurgan bo‘ ozoda ko‘chalarning fayzini aytmay-sizmi! Odamlari undan-da fayzli! Bobolari bardam va tetik, tong oqarmay vazmin odimlab masjidga boradilar. Momolari serharakat, doim bir nimaga unngan.

Bu yurtning keksalari “Qilarimni qilib bo‘ldim, endi davlat meni boqsın”, deb nafaqani sanab, uy to‘rida yonboshlab yotishni o‘ziga

ep ko‘rmaydi. Masalan, manavi xonadon sohibi Toyir tog‘ani oling. Ilgari kolxozda shopirlik qilgan. Farzandlari uyli-joyli, ilmunarli. Nabiralarni o‘ynatib, har qancha oyog‘ini uzatib o‘tirsahaqqi bor. Qayoqda! Qonda borda, yerning odami. Ko‘chadan boshlab, hovlisining sahnigacha ishkam. Kichkina eshikdan egilib, tomorqasiga o‘tsangiz – jannat bog‘chasi! Bodom, gilos, shaftolilar “chappar urib gullagan”, yerda oyoq qo‘ygani joy yo‘q: har turli ko‘katlar...

Redis tugar-tugamas bodringga marza olınadi. Shu tariqa shapaloqday yerdan to kech kuzgacha



ikki-uch martalab ekib-tikib, hosil oladilar. Yetmishi yetishgan bo‘lsa ham ketmon urishda, tuproq surishda uncha-muncha yoshlar boboyning oldiga tusholmaydi, rost. Yana deng, dashtda, kanalning pastida yakka o‘zi bog‘ tiklagan, gir atrofi o‘zimizning subhoni o‘rik, qolganiga yangi chiqqan intensiv noklardan ko‘kartirgan.

Shunaqa. Oltiariqliklar yaratuvchan el. Kattadan kichigi mehnatda pishgan, omilkor odamlar. Tuproqqa yaqin, qoramag‘izdan keladi. Gapning o‘g‘il bolasi – olifta, takasaltanglarni uncha xushlamaydi. Bego-nasirab ko‘z qirida qaraydi, salomini qizg‘onadi. Yer odami bo‘lsangiz, birdan chehrasi ochiladi, “o‘zimizdan ekansiz-ku”, deb eski qadrdondek yelkangizga qoqib-qoqib qo‘yadi. Bir piyola choy, bir cho‘qim osh ilimasa, ko‘ngli joyiga tushmaydi. O‘rtamizda qolsin-u, mehmon otangdan ulug‘ deb birinchi shu oltiariqliklar aytganmish. Askiyani-ku qiyib qo‘yishadi. Ikki gapning birida payrov! Hazil-huzul orasida ilmoqqa ilinib qolganingizni sezmay-siz, keyin tushunib qolasiz-u, yana yuzingizga tabassum yuguradi. To‘y-to‘ychiqda, gap-gashtaklar-da ham suhbat yerga ishlov berish, ko‘chat parvarishi, samarali o‘g‘illar, umuman, dehqonchilik, bog‘dor-chilik ilmidan ketadi. Har bahorda nihol qadashni tabiiy bir vazifa deb bilishadi. Shunaqa tanti, mehnat-sevar el bu oltiariqliklar.

Aslida, biz tomonlarda bahor erta keladi. Kun sal mo‘ralab qo‘ysa bas – dehqon ketmonni yaraqlatib dalaga, bog‘bon qaychisini qayrab bog‘ga yo‘l soladi. Chilla chiqar-chiqmas dastlab issiqxonalarda ish boshlanadi. Kim ko‘kat, ismaloq, redis undirsah, kim qalampir, sarimsoq, bodring, pomidor yetishtiradi. Qarabsizki, bahorgi ilikuzildida ham yurakka, ham cho‘ntakka quvvat bo‘lib turibdi-da!

Biznikilar, ayniqsa, uzumchilikning hadisini olishgan. Shu desangiz, buringi yili Yurtboshining shaxsan o‘zi tumanimizga tashrif buyurib, amaldagi ishlarni erinmay ko‘zdan kechirdilar, xalq bilan muloqot qildilar. Hamma kattakonlarni yoniga chaqirib, mamlakatimizda iqlimi uzumchilikka mos tumanlar ko‘pligini ta’kidlab, ularga ham Oltiariq tajribasini joriy qilish, tokzorlarni ko‘paytirish bo‘yicha aniq ko‘rsatma berdilar. Oltiariq tajribasi! Bu ham bo‘lsa ijodkor elga berilgan bir e’tirof-


da! Nima dedingiz, otam!

O‘sha yiliyoq qisqa muddatda bo‘sh yotgan adirlar o‘zlashtirilib, yangi bog‘lar tiklandi. Gazet tilida aytganda, hosildorligi past paxta va g‘alla maydonlari qisqartirilib, yaqin 2 ming gektar yerga uzumzor barpo etildi. Viloyatdagi 8 ming gektarga yaqin uzum bog‘laridan qariyb bir yarim ming gektari aynan Oltiariq tumanida joylashgan ekan.

Endi bog‘ oralab yursangiz, uzumning turidan bor: hasayni, husayni, rizamat ota, anjanqora, kishmish... Yangi navlardan avatar zo‘r keldi. Nomni qarang! Uzunmıng otidan fe‘lini bilib olaverasiz.

BIR SAVOLGA BIR JAVOB

QUYOSHNING UMRI BOQIYMI?



Ko‘klam kelib, ayoq chekina boshladi. Havo iliqlashmoqda. Quyosh taftida tabiat qabog‘in ishqalab uyg‘onmoqda, yangilanmoqda.

Qiziq, mana shu porlab nur sochib turgan quyoshning yoshi nechada ekan-a? Nuri tuganmasmikan? Yana qanchagacha yetarkan? Shu savollarga fizika-matematika fanlari bo‘yicha

falsafa doktori Farhod Botirovdan quyidagicha javob oldik.

– Biz bilgan Quyosh Yerga eng yaqin yulduz bo‘lib, hozirgi holatda uni statsionar yulduz deb ataymiz. Ya‘ni, Quyosh radiusi va ravshanligini deyarli o‘zgartirmaydigan yulduzdir. Olimlar Quyoshga o‘xshagan turli yulduzlar ustida tadqiqot ishlarini olib borganch, shunday xulosaga kelishgan: “Yulduzlar, shu jumladan Quyosh ham o‘zining evolyutsiya bosqichini o‘taydi va bu davrda u kengaya boshlaydi”.

Hozirgi kunda Quyoshning yoshini taxminan besh milliard yil deb hisoblasak, oldinda uning yana shuncha umri qolgani haqida ilmiy bashoratlar bor. Ya‘ni, Quyosh taxminan besh milliard yil davomida energiya ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Hozirgi vaqtda u yadro reaksiyalari

orqali vodorodning geliyga aylanishi hisobidan paydo bo‘ladigan kuchli energiya tufayli o‘zidan yorug‘lik va issiqlik taratmoqda.

Biroq vodorod zaxiralari tugab, Quyoshning o‘zgarish bosqichiga kirishi boshlangach, milliard yillik umri davomida uning hajmi haddan tashqari kengayib, gigant qizil yulduzga aylanishi mumkin. Oxir-oqibat, Quyosh o‘zining markaziy yadro energiyasini yo‘qotib, “sodda va bezarar” oq yulduzga aylanib qoladi. O‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, odamzod yaqin kelajakda o‘zining yashashi uchun yangi bir “kuray arz” topishi lozim. Olimlar yashash uchun maqbul sayyora – Yer muhitiga yaqin boshpana izlashga allaqachon kirishgan.

Vasila HABIBULLAYEVA tayyorladi.

Jamoliddin BADAL



Boshlanishi 1-sahifada.

Robert LORENS,
Humboldt universiteti talabasi:

– Men O'zbekiston haqida, uning sharaflari tarixi, buyuk namoyandalari to'g'risida ko'p eshitgan va o'qigan edim. Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino kabi dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan daholar yurtiga hurmatim va qiziqishim baland. Yana, o'zbek xalqiga ehtiromim shakllanishida bizning universitetda ta'lim olayotgan hamyurtlarimizning ishtiyoqi, layoqati va vatanparvarligi sababchidir. Tarixdan ma'lumki, yuz yil avval mening vatanimda ta'lim olgan o'zbek yigit-qizlari keyinchalik qatag'on qilinib, misli ko'rilgan qiyonoq va azoblarga giriftor etilgan. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan jadalning maqsadi va g'oyalari amalga oshirish yo'lida olib borilayotgan ishlar meni cheksiz quvontirdi. Chunki bir paytlar taraqqiyot istagida ilm olishga ber qaratilgan jadidlar qora kunlarni boshdan kechirgan bo'lsa, bugun davlat rahbarining shaxsan o'zi ana shunday iqtidorli yoshlarni ilm va ma'rifat yo'lida choralab, homiylik hamda valine matlik ko'rsatyapti. Demak, bugungi o'zbek

BEHBUDIY IZDOSHLARI GERMANIYADA

yoshlarining baxti kulg'an, kelajagi oydin. O'ylaymanki, bu nihollar tez fursatda o'zining salmoqli mevalarini beradi.

Saodat G'OZIYEVA,
Germaniyadagi O'zbekiston
talabalari uyushmasi bosh kotibi:



– Elchixonada nishonlangan qo'shaloq tadbir xorijda o'qiyotgan biz yoshlar uchun katta voqe'lik. Uyushmamizning rasmiy ochilish marosimi Behbudiy bobomiz tavalludiga bag'ishlangan tadbirga to'g'ri kelgani-yu, tanlov g'oliblarining ham shu yerdaligi, ayniqsa, quvonarli bo'ldi.

Ziyoda QO'CHQOROVA,
Namangan viloyatidagi
26-maktab o'quvchisi:

– “Jadidlar izidan” respublika tanlovi-da g'olib bo'lib, Germaniyaga keldik. Bu yerda jadidlar izidan ular tahsil

olgan universitetlarga bordik. 29 nafar bitiruvchisi Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan Humboldt universitetining hozirgi faoliyati bilan tanishdik. Uning boy tarixi, taniqli olimlari hayoti haqida ma'lumotlarga ega bo'ldik. Kelajakda biz ham ushbu dorilfununlarga kelib ta'lim olishni niyat qildik.

Farzonabonu YO'LDOSHALIYEVA,
Farg'ona shahridagi
46-maktab o'quvchisi:

– Germaniyaga sayohatimiz juda mazmunli bo'ldi va katta taassurot qoldirdi. Safarimiz davomida borgan har bir joyimiz o'ziga xos tarixga ega ekan. O'zimiz uchun lozim bo'lgan ko'p jihat-larni o'rgandik va biz ham o'tmishimizni yanada ko'proq qadrlashimiz kerakligini angladik.

Bizni Germaniya parlamenti – Bundestagga olib borishdi. U yerda mam-lakatning siyosiy tizimi, qonun chiqarish jarayonlari va demokratik tamoyillari haqida gapirib berishdi. Ko'pchiligimizda mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga qiziqish uyg'ondi. Siyosiy bilimlarni ham oshirishimiz kerak ekanini, hali o'rganishimiz shart bo'lgan narsalar ko'pligini tushunib, o'z oldimizga yangi rejalar, maqsadlar qo'ydik.

Bobur QODIROV,
Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi
5-maktab o'quvchisi:

– Buyuk bobomizga bag'ishlangan uchrashuvni Germaniyadagi O'zbekiston talabalari uyushmasi bilan birgalikda

nishonlaganimiz unutilmas voqea bo'ldi. Shunday talabalar tashkiloti AQSh va Britaniyada borligini eshitgan edim. Germaniyada ham tashkil topgani quvonarli. Bu talabalarni birlashtiradigan, ularga yordam ko'rsatadigan yoshlar kengashidir. Uyushma yurtimiz yosh-larini xorijda yanada ko'proq ilm olishga chorlaydi, nufuzli universitetlarga o'qish-ga kelishlariga ko'mak beradi, deb ishonaman.

Zilola KOMILOVA,
Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi
32-maktab o'quvchisi:

– Jadidlar yetishmayapti, jadidlar, – deb yozadi shoir. Bu yerda ana shu bizga yetishmayotgan zamona jadidlarni

topganday bo'ldik. Germaniyada ta'lim olayotgan akalarimiz, opalarimizni jadid-larga o'xshatdim. Ularning ortidan biz ham nufuzli xorijiy universitetlarda o'qiy-miz. Vatanimiz imijini dunyo miqyosida yanada yuksaltirishga harakat qilamiz. Bu uchrashuv bizning kelajak orzu-umidlarimizni amalga oshirishga rag'batlantirdi.

Germaniyaning eng diqqatga sazo-vor joylarini ko'rsatishdi. To'rt tomoni suv bilan qoplangan muzeylar oroli-ga ham bordik. Go'yo Germaniyaga o'qish umidida, vatanini taraqqiyotga yetaklash maqsadida kelib, ming mashaqqat bilan ilm o'rganib, o'z yurtida juvonmarg bo'lgan bobolar tarixi, hayoti,

faoliyatini o'rganish bizga saodat kalitini berganday. Bu kunlarni hech qachon unutmayman.

Shodiyonabonu RAHMATJONOVA,
Andijon viloyati Buloqboshi tumani-
dagi 11-maktab o'quvchisi:

– Menga nemis madaniyati judayam yoqib qoldi. Berlin shahridagi tarix va Berlin tabiatshunoslik muzeyi, davlat kutubxonasi, “James Simon” galereyasiga bordik. 2023-yilda davla-timiz rahbari Shavkat Mirziyoyev va Germaniya Prezidenti tomonidan ochilgan “Makedoniyalik Iskandardan to' Kushon saltanatigacha” arxeologik topilmalar ko'rgazmasi mana shu galereyada namoyish etilgan ekan. Ko'rgazmaga 600 mingga yaqin kishi tomoshaga kelganini eshitib hayratim oshdi. Tarixiy bino – Reyxstag bo'ylab ekskursiya uyushtirildi. Ayniqsa, O'zbe-kistonning Germaniyadagi elchixonasi diplomatlariga juda havas qildim. Bu yerda olgan barcha taassurotlarimni o'rtoqlarimga gapirib beraman. Kelajakda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Cho'lponlar izdoshi, ya'ni yosh jadid bo'lib, ularning ilm va ma'rifat yo'lidagi ishlarini davom ettirishga va'da beraman.

Muhayyo RUSTAMOVA tayyorladi.

Izoh: maqola O'zbekistonning Ger-maniya Federativ Respublikasidagi elchixonasi bilan hamkorlikda tayyor-landi.

O'RNAK

“IBRATXONA KITOB DAN BOSH LANADI”

Bu e'tirof ko'pqirrali ijodkor shaxsning umr mazmunidan kelib chiqqan.

...O'n to'rt yashar qizaloqning boshqalarga ajdahomisi ko'ringan “temir o'tsochar” – traktorni boshqarganini eshitganmisiz? Bu voqea o'tgan asrning oltmishinchi yillari boshida ro'y beradi. O'sha vaqtlarda paxta atalmish mashaqqatli ekinni yetishtirishda asosiy kuch bo'lgan xotin-qizlarni qo'l mehnatidan ozod qilish niqobida paxta qulligini rivojlantirishni ko'zlagan “tursunoychilik” harakati maydonga chiqqan edi.



Yana shu qizcha – yuqori sinf o'quvchisi vaqtida maktabga xo'jalik tomonidan ajratib berilgan o'n gektar maydonda paxta yetishtirish uchun tashkil qilingan “Yoshlar brigadasi”ga yetakchilik qilib, mavsumda 40 sentnerlik xirmon ko'targanini bilarmidigiz?

Qishloqda dunyoga kelgan qizaloq akalariga havas qilib, tetapoya yurgan kezarlaridan futbolga qiziqqani, vaqti kelib maktab jamoasida o'g'il bolalar qatorida to'p surgani va hatto o'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan viloyat birinchiligidagi to'purar bo'lganidan xabaringiz bordir? Eng qiziqi, maktab jamoasi tumanda g'olib chiqib, viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritganida maktab mutasaddilari hakamlar o'g'il bolalar jamoasida qiz bola o'ynayotganini bilib, musobaqadan chetlashtirishmasin degan fikrni unga yetkazishganida u uyiga kelib o'qish shart sochlarini qirib, taqirbosh hosda go'yo o'g'il bola ko'rinishida musobaqaga borganini, bu o'zboshimchalik uchun otasidan dakki yeb, bir yilgacha boshidan ro'mol tushmaganini balki ertak dersiz?

O'tgan asrning elliginki yillari o'rtalarida Bog'ot tumanida velosport turiga o'g'il bolalar qatorida qizlar ham qiziqib, “ikki g'ildirakli mo'jiza”ni binoyidek boshqarishgani va hatto sportning shu turi bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda qatnashishlariga o'sha qiz – qahramonimiz sabab bo'lganini aytmak ta'rifimiz kemtik qoladi.

Bular hali hammasi emas. U maktab havaskorlar to'garagida kuchli va shirali ovozi bilan mumtoz-u zamonaviy qo'shiqlarni maromiga yetkazib ijro qilib, yosh iqtidorlarning viloyat va respublika bosqichlarida faxrli o'rlnlar egasiga aylansa-da, oilaviy muhit sabab maktabni tugatgach konservatoriyaga kira olmaydi va majburan Urganch pedagogika institutining rus tili va adabiyoti fakulteti-ga hujjat topshiradi. Oliy ma'lumotli o'qituvchi diplomini olgach, uni Matyusuf Xarratov nomidagi viloyat musiqa

maktabiga o'qituvchi sifatida yuborishadi. U esa kutilmaganda hammani hayratga tushirib, diplomni sandiqqa solib, shu maktabning vokal fakultetida to'rt yil tahsil olishni maqsad qiladi. Musiqa maktabini bitkazgach uni O'zbekiston konservatoriyasiga imtihonsiz qabul qiladilar. O'zbek qo'shiqchilik san'ati darg'alaridan biri Saodat Qobulova undagi iqtidor allaqachon professional darajaga yetganini angelaydi va konservatoriyada o'qib vaqt yo'qotishini istamay, Madaniyat vazirligi yo'llanmasi orqali Ogahiy nomidagi Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatriga ishg'a yubortiradi. Mana, ellik yildan ortiq davrda qahra-monimiz mazkur dargohda ijod qilib kelayotir. O'tgan vaqt mobaynida ikki yuz-dan ortiq turli rollarni maromiga yetkazib ijro qilib, minglab tomoshabinlar e'tirofiga sazovor bo'ldi – “O'zbekiston xalq artisti” faxriy unvoni egasiga aylandi. Bundan tashqari, ko'plab kinolarda, videofilmlarda suratga tushdi. Repertuaridagi yuzlab mumtoz va zamonaviy qo'shiqlari bilan san'at ixlosmandlari qalbidan joy oldi, bir qator Yevropa va Osiyo davlatlarida gastrol safarlarida bo'ldi...

Anchagina cho'zilgan boshlamadan so'ng qahramonimizni tanishtiramiz – gap O'zbekiston xalq artisti Gulora Rahimova haqida ketyapti. (Ko'pchilik bosh-lamadayoq gap kim haqida ketayotganini anglab yetgan bo'lsa kerak).

Bir gal opani yo'qlab bordim. Urganch shahrini qoq ikkiga bo'lib oqib o'tadigan Shovot kanali qirg'og'idagi ko'pqavatli uyga yondosh tiklangan mo'jazgina xona-don eshigining chaqiriq tugmasini bos-dim. Hech kim ovoz bermagach, qayta va qayta tugmani bosishga majbur bo'ldim. Yana jimlik. Eshik tutqichini pastga qayirsam... qullflanmagan ekan. Ko'p bora bu xonadonga kelganim uchun ikkilanmay “Opa” deganicha ovoz berib torgina dahlizdan o'tib yondosh ochiq eshikdan ichkari mo'raladim. Qarasam, opa stolga mukka tushganicha kitob o'qiyotgan ekan.

Mutolaaga shu qadar berilib ketganki, qo'ng'iroq sasi quloqlariga kirmagan. Yana solda qog'oz va qalam turibdi, unga nimalardir yozilgan.

“E, keldingmi? Uzr, kitob o'ziga sehlrab qo'ydi. Butun dunyo qaygadir ketdi”, dedilar kulgancha.

Suhbatimiz o'z-o'zidan kitob mutolaasi-ga burildi.

“Olti yoshimda maktabga borgan bo'l-sam... demak, yetmish yilki kitob mening hamrohim. Maoshim-u gonorollarimning ro'zg'or qozonidan ortig'ini kitob xarid qilishga sarflaganman. Shaxsiy kutub-xonamda o'n mingdan oshiq kitob bor”.

Opa aytadilar: *“Teatrda o'zinga topshi-rilgan har bir rolni maromiga yetkazib ijro qilish, qahramonim yufofasini mukammal aks ettirish uchun birinchi navbatda, kitoblarga murojaat qilaman. Bir vaqtlari teatrimizda “Antigona” tragediyasi sahna-lashtirildi. Menga Tresiy rolini berishdi. Muqaddam “Beruniy” dramasida Gulsanam, “Layli va Majnun”da Layli kabi sharqona obrazlarni yaratganimda uncha-lilik qiynalmagan edim. Negaki, Navoiy vazratning “Xamsa”sini maktab o'quvchisi vaqtimdayoq necha karra o'qiganman. Yurtimizning necha ming yillik tarixiga oid barcha asarlar shaxsiy kutubxonamda bor. Ammo qadimgi yunonlar hayotidan hikoya qiluvchi “Antigona” tragediyasidagi kichik rol – Tresiy obrazini yaratish uchun o'sha davrga oid ko'plab ilmiy va tarixiy asarlarni sinchiklab o'qib chiqishimga to'g'ri keldi. O'z davrida uyg'onish deb e'tirof etilgan va jahon tamadduniga “ellin madaniyati” iborasi bilan qarash davr, undagi davlat tuzumi, hayotiy qurashlar, jamiyatda ayollarning tutgan o'rni, hukm-dorlarning tuzuklari qanday bo'lgan? Ellin madaniyati Sharqnikidan ko'pgina nuqtalarida farqlanadi. Ishonasizmi, shu kichik rolni ijro qilish uchun qirqdan oshiq tarixiy kitoblarni o'qib chiqdim”.*

Opa gap orasida “Oshiq G'arib va Shohsanam” dramasi-dagi bosh rol ijrosiga kirishishdan oldin “Go'ro'g'li” turkumidagi o'nlab dostonlarni qayta va qayta o'qiganini aytadi.

...Mustaqillikning ilk davrida viloyat-ga birinchi hokim bo'lgan ma'rifati inson Marks og'a Jumanioyov bida “Xorazmda eng boy odam kim?” deb so'ragandilar. To'sat berilgan savol mazmunini o'zimcha tushunib, o'sha vaqtda endigina tadbirkorlik yo'lini tut-gan insonlarni xayolimdan o'tkaza bosh-laganimda Hokim buva o'z savolliga o'zi javob berdi: “Xorazmda eng boy odam – Ne'mat Solayev. Unda Hojixon Boltayev ijrosi yozib olingan qo'shiqlarning o'n ikki soatlik magnit tasmasi bor”.

Keyinchalik viloyatga rahbarlik qil-gan yana bir ma'naviyatli, kitobsevar

rahbar Gulora opani eng boy inson deb ataganini yuqoridagi fikrga muqoyasa qilsa bo'ladi.

...O'n yillar oldin Gulora opa umri bo'yi to'plagan shaxsiy kutubxonasidagi kitoblardan boshqalar ham foydalansin degan maqsadda Urganch shahar hokimidan mo'jazgina kutubxona qurish uchun ikki sotixcha yer so'rab boradi. Shahar hokimi bo'lgan yoshgina yigit “Kutubxonani nima qilasiz? Kitoblaringizni sotib, anchagina pul bo'ladi”, deydi.

“Har bir kitob farzandim kabi – oilamning a'zosi. Ularni qanday sotaman”, deydi opa ajablanib.

...Suhbatimiz intihosida Gulora opa aytgan gapga beixtiyor qarsak chalib yuborasiz. “Yuz yil oldin jadid bobolarimiz g'aflet uyquasi elitgan avomni uyg'otmoq uchun ularni o'qitish, teatr asarlariga oshno qilishni o'zlarining bosh g'oyasiga aylantirishgani bejiz emas. Ma'naviyat mutolaadan boshlanadi. Behbudiy haz-rat aytmoqchi “Teatr – ibratxona” ibora-sini davom qildirib “Ibratxona kitobdan boshlanadi”, desak to'g'ri bo'ladi. Prezi-dentimiz jadidlik harakatini Uchinchi Uyg'onish davriga kirgan yurtimizda yo'lchi nur o'rinda qo'llash tashabbuskori bo'lganliklari biz san'atkorlar uchun katta imkon va katta mas'uliyat ham. Yana afuslanamanki, sal keyinroq tug'ilishim kerak ekan...”

Opa gap orasida umrida bir kitobni qo'lga olmagani “san'atkor”lar toifasi paydo bo'layotgani, qo'shiq matnini buzib aytish, sahnada rol ijro qilganida tarixiylik va zamonaviylik ayqash-uyqash bo'lib ketayotgani, ayrim holatlarda sahna madaniyati olomon madaniyatiga aylangani haqida kuyunchaklik bilan gapiradi. “Yoshlar, boshqa kasb egalari u yoqda tursin, o'zini “ziyoli qattam vakili” deb biladigan ayrimlar ham hozirda kitobdan uzoqlashgan. San'atkor ahli-niing necha foizi kitob o'qiydi, degan savol qo'yilsa, javob aytishga uyalasan odam”.

Yana Opa ertaga umri bo'yi to'pla-gan boyligi – shaxsiy kutubxonasi taqdiri qanday kechishidan xavotir bildirganida nima deishni bilmay yer chizib qolaman... Opaning hayoti, ijodi haqida ko'p gapirish mumkin. Olti yil oldin bu haq-da kattagina kitob chop qilgani va ayni kunda Gulora Rahimova o'z hayoti, ustozlardan o'rganganlari va shogird-lariga aytmoqlarini kitob holida tartibga keltirayotganligini eslatib ketish o'rinni.

Qisqasi, “O'qigan o'zar, o'qimagan to'zar”, deyilmish otaso'zni sharhlashga hojat qolmadi, menimcha.

Ro'zimboy HASAN,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

JAHON AYVONIDA

KAYA KALLAS O'ZBEKISTONGA KELADI

Yevropa Ittifoqining tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha oliy vakili Kaya Kallas 27-mart kuni Ashxobodda bo'lib o'tadigan yigirmanchi “Yel – Markaziy Osiyo” vazirlar uchrashuviga rais-lik qiladi.



U O'zbekiston Respublikasi Prezi-denti Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashish uchun Toshkentga ham keladi. Bu haqda Yelning O'zbekistondagi delegatsiyasi matbuot xizmati xabar berdi.

VAQTINCHALIK HOKIM SAYLANDI



Istanbul shahar munisipaliteti deputatlari tomonidan o'tkazilgan ovoz berish natijalariga ko'ra amaldagi hukumatga muxoli-fatdagi Jumhuriyat xalq partiyasi vakili Nuri Aslan vaqtinchalik hokim lavozimiga saylandi. Bu haqda “NTV Haber” nashri ma'lum qiladi.

Istanbul shahar munisipalitetida ko'pchilikni tashkil etuvchi ushbu partiya vakillari o'z safdoshi Nuri Aslanning nomzodini 177 ovoz bilan qo'llab-quvvatlagan.

AVTOMOBIL IMPORTIGA BOJ

AQSh prezidenti Donald Tramp mamlakatga kiritiladigan avtomobillar va ularning ehtiyot qismlariga 25 foizlik yangi import bojlarini joriy etishini ma'lum qildi. Bu haqda BBC nashri xabar berdi.

Trampning ta'kidlashicha, yangi bojlar 2-apreldan kuch-ga kiradi. Ehtiyot qismlar uchun to'lovlar may oyida yoki undan keyinroq joriy etilishi belgilangan.

Prezident bu chora avto-mobilsozlik sanoati uchun “misli ko'rilmagan o'sish”ga olib kelishni ta'kidlab, AQShda yangi ish o'rnlari yaratiladi va investitsiyalar ko'payadi, deb ishonimoqda.



URUSHNI TUGATISHNING “ENG TEZ” YO'LI



Zelenskiyning fikriga ko'ra, Kiyev NATOga qabul qilinsa, bas.

AQSh hozirda bu qadamga tayyor emasligini tan olgan, biroq Zelenskiy Ukrainaning alyansga a'zo bo'lishi Amerika rahbarining qo'lida ekanligini ta'kidlagan.

ROSSIYAGA YANA UCH MING ASKAR YUBORILDI

Janubiy Koreya Pxenyan Ukrainaga qarshi urushga qo'shin yuborib, Rossiyaning raketalar, artilleriya va o'q-dorilar bilan ta'minlayotganini taxmin qilmoqda, deya ma'lum qildi CNN.



Shimoliy Koreyaning 11 ming askaridan 4 ming nafari alla-qachon halok bo'lgan yoki yaralangan bo'lishi mumkin.



Boshlanishi 1-sahifada.

Uch to'qnashuvda – Erjar (1866), Cho'ponota (1868, may) va Zirabuloq (1868, iyun) janglarida Buxoro qo'shinlarining mag'lubiyatga uchrashi, Toshkent, Jizzax, Xo'jand kabi bir qator shahar va viloyatlarning dushman ixtiyoriga o'tishi, ayniqsa, mintaqa uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan Samarqandning qo'ldan ketishi amirlikda hukmdorga nisbatan qattiq norozilik va nafrat uyg'onishiga sabab bo'ldi. Vaholanki, dushman Toshkentga daxl qilganida amir parvo ham qilman, atrofidagilarning xavotiriga esa "Men qo'shin bilan yo'lga chiqsam, Maskovgacha borishim mumkin", degan havoyi gaplarni gapirganligi haqida muarrix, o'z davrining mutafakkiri Ahmad Donish guvohlik beradi.

Mag'lubiyatga olib kelgan sabablar ko'p. Ahmad Donish qayd etishicha, amir Muzaffar harbiy lavozimlarga bu ishda layoqati bo'lmagan va umrida o'q ovozi ni eshitmagan kimsalarni qo'yib, asil kishilarni chetlashtirgan. Sarbozlarning maosh va imtiyozlarini keskin kamaytirgan. Bir so'z bilan aytganda, o'zigacha qilingan islohotlarni yo'qqa chiqargan. Hukmdor atrofida har ishda shaxsiy manfaatni ustun qo'yadigan amaldorlar to'plangan edi. Amir qo'shinida qurulaslahlarning islohma muhojligi, mavjud to'plamlarning aksariyati yaroqsiz ekanligi vaziyatni yanayam og'irlashtiradi.

Yana bir jihat. Samarqand hali qo'ldan ketmasidan burun uning mudofaasiga kirishgan shahzodaning faolligi shu yerda hokim bo'lib turgan Sherali

TARIX VA TAQDIR

1922-yil kuzida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi mutasaddilari 55 nafar istiqbolli yoshlarni zamonaviy fan va texnologiyalarni o'rganish maqsadida Germaniyaga o'qishga yuboradi. Kelajakda yurti taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shishi kutilgan, biroq kutilmaganda juvonmarg ketgan yoshlardan biri Bahovuddin Aminjonov edi.

Bahovuddin 1904-yili Buxoro shahrida mudarris xonadonida tavallud topgan. Otasi Aminjon Ziyovuddinov "Yosh buxoroliklar" partiyasining faollaridan bo'lib, Buxoro tarixiga oid kitoblar bilimdoni edi. 1914-yili yosh tarixchi olim Ahmad Zaki Validiy To'g'on Buxoro hududiga ilk marotaba kelganida uning uyida yashab, maslahatlar olgan edi. Aminjon Ziyovuddinov 1920-yili tashkil etilgan Buxoro Xalq Respublikasida qator nufuzli vazifalarda ishlagan. 1921-yili siyosiy masfadda Buxoro zaminiga kelgan Zaki Validiy yana Aminjon Ziyovuddinov xonadonida mehmon bo'ladi. Bu esa uning Buxoro siyosiy hayotida mavqeyi yuqori bo'lganidan dalolat beradi.

Bahovuddin dastlab jadid maktabida savod chiqarib, so'ng madrasa ta'limini olib fors, arab tillarini mukammal egallaydi. Buxoro hukumati tomonidan Germaniyaga yo'llangan talabalar uchun mas'ul etib tayinlangan Olimjon Idrisiyning ma'lumotiga ko'ra, Bahovuddin Germaniyada bir qancha vaqt davolanishga majbur bo'ladi.

U o'zi bilan borgan o'quvchilar orasida o'ta iqtidorilligi bilan ajralib turardi. Avvaliga u Aziz Xo'ja, Sattor Jabbor, Vali Qayum bilan Doktor Fekkelmannning xususiy o'rta maktabida ta'lim oladi. Shundan so'ng Berlin universitetining tibbiyot fakultetida o'qishni davom ettiradi. Bahovuddin talabalik yillarida faqat mutaxassislgi yuzasidan ilm olish va tajriba orttirish bilan cheklanmay, talabalar o'rtasida qilgan ma'ruzalarida sovet hukumatining O'zbekistonda o'lib borayotgan yer islohoti, tumanlashtirish kabi tadbirlar o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan an'anaviy turmush tarzi hamda qadriyatlariga qarshi yo'naltirilganini isbotlashga intiladi.

Qahramonimiz Vatanda mavjud og'ir iqtisodiy-jitimoiy ahvoldan yaxshi xabardor edi. Ayniqsa, o'sha vaqtlarda mintaqada sil va boshqa yuqumli kasalliklar avj olib ketgan, sovet davlatida esa unga qarshi kurash uchun na pul, na tibbiy xizmat ko'rsatish muassasalari va na bir tayinli siyosat bor edi. Shuning uchun Bahovuddin Turkiston matbuotining to'ng'ich nashri bo'lgan "Yer yuzi" jurnalidagi o'z chiqishlarida inson sog'lig'i uchun eng zarur va eng kamxarj yo'l sifatida jismoniy tarbiya masalasini ilgari suradi. U maqolalaridan birida xalqqa murojaat etib yozadi: "Tan harakatlarining bizga tegadurgon foydalaridan biri va muhimi

IMPERIYANI QO'RQITGAN AMIRZODA

inoqqa yoqmaydi. U amirga "farzandi arjumandigiz taxtingizni tortib olmoqchi va Samarqandni o'ziga poytaxt qilmoqchi" mazmunidagi noma jo'natadi. Muzaffar bu qutquga ishonadi. O'g'lini chaqirib oladi va G'uzor bekligiga jo'natadi.

Katta to'rani ketkazishga erishgan hokim odamlarga jabr-zulmni oshiradi. Xalq g'alayon ko'tarib, ba'zilar amirga inoq ustidan shikoyat yuboradi. Amir bu safar ham inoqqa ishonadi va g'alayonni bostirish uchun sarbozlarini jo'natadi. Samarqandga kirgan jazo cherigi to'fganglardan o'q otib, ko'plab odamlarni o'ldiradi. Bu sitamlardan to'ygan Samarqand ahli Kaufmanga yordam so'rab xat yozadi.

Said Abdumalik otasiga dushmanga birgalikda zarba berishni taklif etadi. Hukmdor bunga ko'nmaydi. Katta to'ra dastlabki harakatlari davlat ozodligi uchun boshlangan bo'lsa, keyinchalik, ya'ni dushman tobora mamlakat ichkarisiga chuqurroq kirib kelayotganida amirning harakatsizligi va o'g'lini xiyonatda aylagani uni jiddiy qaror qabul qilishga majbur etadi. O'g'il esa kaltabin amaldorlar boshboshdoqliklariga chek qo'yib, kuchli markazlashgan davlat tuzishga va bu yo'lda, kerak bo'lsa, shahid bo'lishga ahd qiladi.

IKKI O'T ORASIDA

Shahzoda qilich yalang'ochlab, muhoroaba maydoniga kirganida endi-

gina 20 yoshda edi. G'uzorga qaytib kelganidan so'ng katta o'g'lining atrofiga vatanparvarlik kayfiyatidagi kuchlar to'plana boshlaydi. Shahrisabz begi Bobobek va Kitob begi Jo'rabek amirzodaning asosiy ittifoqchilaridan bo'ldi. Bir paytlar Qo'qon xonligida harbiy qo'shin boshlig'i bo'lgan Siddiq Kenesarin (qozoq yetakchilaridan Kenesari Qosimovning o'g'li – Siddiq) ham vatanparvar kuchlar safida bo'ldi. Shuningdek, Husaynbek, Abdulg'afforbek, Olloyor qorovulbegi, To'g'aymurod eshikog'aboshi kabi yetakchilar, bundan tashqari, amirlikdagi o'zbek, qozoq, turkman, tojik kabi xalqlar namoyondalari Katta to'raga o'z sadoqatlarini izhor etdilar. Aholining deyarli barcha qatlami, jumladan ziyolilar, din ulamolariyu madrasa toliblari ham bu kurashda shahzoda tomonida turdi.

Abdumalik bir tarafdin amir, ikkinchi tarafdin rus qo'shinlari bilan bir necha marotaba to'qnashadi. Ba'zida qo'li baland kelsa, ba'zida mag'lubiyat alamini totadi. Rossiya mustamlakasiga va amir siyosatiga ko'lnolmagan fidoiyalar uni yagona rahbar sifatida ko'rdilar, unga ergashdilar. Amirzoda qisqa vaqt ichida amirlik hududining uchdan bir qismini o'z nazoratiga olishga muvaffaq bo'ldi.

Rossiyaning Turkiston mintaqasidagi ma'murlari Peterburgga yuborgan raportlarida amirning tobora xalq

orasida obro'si tushib, katta o'g'lining nufuzi ortib borayotganligi, bu ishga vaqtda aralashilmasa, ko'p o'tmay bu imperiyaga qimmatga tushishi mumkinligi to'g'risida yozg'irganlarining o'zi Katta to'ra qobiliyatiga tan berganligi, undan jiddiy xavfsiraganligini anglatadi.

Amir Muzaffar Abdumalik ustiga qo'shin tortadi, ammo yengiladi. U rus generali Kaufmanga yordam so'rab noma jo'natadi. Nafaqat Buxoroda, balki Turkiston o'lkasining boshqa yerlarida ham Katta to'rani olqishlaydigan ovozlari yangray boshlagandi. Amirning yordam so'rab qilgan murojaati rus podshosi amaldorlari uchun ayni muddao bo'ldi. Zamonaviy to'p va pulemyotlarga ega Chor qo'shini milliy ozodlik kuchlarini Qarshida tormor etadi.

TURKISTON FARZANDLARI – ET VA TIRNOQ

Yuqorida ta'kidlanganidek, amir bor imkoniyatini to'ng'ich o'g'lining muvaffaqiyatini yo'qqa chiqarishga, bu orqali uning xalq orasida tobora yuksalib borayotgan obro'siga putur yetkazishga sarflagan. Bunga erishdi ham. Kitob va Shahrisabz beklarini undan aynitdi. Katta to'ra esa yonida qolgan 600 chog'lik odami bilan harakatini davom ettiraverdi. Qayta-qayta kuch to'plab, dushmanga zarba beraverdi. Siddiq to'ra

og'ir damlarda shahzodaning yonida turganligi qozoq qardoshining yurt yukiga birdek yelka tutganligidan, o'sha davrda bu o'lka o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman va boshqa millatlar uchun birdek muqaddas sanalganidan nishona edi.

Ittifoqchilaridan – madad kuchlaridan kesib qo'yilgan Abdumalik to'ra Xiva xoni, afg'on amiridan yordam so'raydi. Ammo ular Rossiya bilan ziddiyatga borishdan cho'chib, taklifni rad etishadi. Keyinroq Qoshg'arga boradi va bu yerda Yoqubbek vafotiga qadar uning huzurida bo'ladi. Xorijda yurgan kezlariida ham bir laha bo'lsada o'z maqsadlaridan voz kechmaydi. Uning ta'siridan qattiq qo'rqqan Rossiya imperiyasi Katta to'raning o'z yurtiga qaytib kelishiga jiddiy qarshilik ko'rsatadi.

Garchi Muzaffarning o'nga yaqin o'g'illari orasidan beshinchi farzand Abdulahad valiahd etib tayinlangan va otasi vafotidan so'ng u amirlik taxtini egallagan bo'lsa ham, Katta to'radan bo'lgan xavotir arigan emas. Katta to'ra 61 yoshida Peshovar shahrida vafot etadi. Abdumalikxon umrining oxirigacha yurt sog'inchi, uni ozod ko'rish armoni bilan yashadi. Biroq o'sha davrdagi muhit, siyosiy vaziyat uning bu orzusini ro'yobga chiqarishga imkon bermadi.

Hamzabek TURDIYEV, jurnalist

“BUNDAY YAXSHI O DAM KAM BO’LADI”

insonning nafas olish apparati (o'pka, yurak)ga, umuman nafas olishg'a va qon yurishiga bo'lg'on ta'siridir. Biz tan harakatlari qilib a'zolarimizni ishlattirganimizda ularga ko'prak havo, to'g'riroq aytganda havoning 5 dan bir bo'lagi bo'lgan "muvalldil ul-hamuza" (kislorod) g'ozl (gazi) kerak bo'ladir va buni esa biz o'pkamiz orqali olamiz. Biz qancha ko'p tan harakati, isputr qilsak, shuncha ko'p nafas olamiz. Bu esa bizning foydamizdir. Biz tomoshag'a chiqib bir-ikkki chaqirgin yursak, nafas olishimiz odatdagidan ikki yarim misli



ortadir. Uzoqroq vaqt, bir, ikki soat yursak, to'rt-besh misli, agar tog'larga chiqsak, olti misli, tez chopsak, o'n ikki misli ortadir... Yurish, chopish, tog'ga chiqish kabi harakatlar bilan ixtiyorsiz ko'proq nafas olish o'miga, o'zimiz uydin tashqariga chiqib qattiq-qattiq nafas olsoq ham bo'ladi... O'pkamiz kuchlik bo'lsa, har xil yomon kasalliklarning mikro'blari (qurt) o'pkamizga kirganda unda jon ola olmaydi va o'pkamiz bu mikro'blar bilan muvaffaqiyatlik sur'atda kurashadi. Bu kasalliklarning biri va eng yomoni tubirkulo'z (sil)dir. O'pka kuchlik va sog' bo'lganida bu mikro'blar hech narsa qila olmaydirlar va biz sog' qolamiz. Mana, tan harakatlari vujudini, o'pkalarimizni sog'lom qiladi, har xil kasallarga muqobala qilishda qurollangan bo'ladir" ("Yer yuzi" jurnali, 18-son, 1927-yil 14-yanvar).

Yuqoridagi maqoladan yana bir narsani anglash mumkinki, Bahovuddin turkistonlik boshqa talabalar qatori ona tilini yot so'zlardan ham imkon qadar himoya qilishga tirishadi. Maqolalariga baholiquadrat ruscha, nemischa yoki lotincha, umuman Ovro'pa so'zlarini kiritmaslikka harakat qiladi. Fikrini

sof o'zbek tili imkoniyatlari doirasida uqtirishga intiladi.

1928-yili sovet hukumati Bahovuddinga o'qish uchun stipendiya berishni to'xtatadi. U mavjud vaziyatda turkistonlik talabalarning yetakchilari Ahmad Naim, Sattor Jabbor, Said Ali Xo'jaga maslahat soladi. Ular tahsilni tugallash maqsadida mablag' topish imkoniyatlarini qidira boshlaydi. Shundan so'ng Ahmad Naim Polsha elchixonasiga borib, Bahovuddin Aminjonovga o'qishini tugatishi uchun yordam so'raydi. Ular buni SSSRning Germaniyadagi

endigina 33 yoshni qarshilaganida, ya'ni 1937-yil yanvar oyida uni sovet jallodlari yo'qlab keladi...

BahovuddinAminjonov 1922–1929-yillarda Germaniya va Polshada o'qigan, "Mustaqil Turkiston" aksilsovet tashkilotining a'zosi, Polsha razvedkasiga josuslik maqsadida yollangan, degan tuhmatlar bilan qamoqqa olinadi. Oridan turmush o'rtog'i Tanzila va uch yashar qizi Suriya qon yig'lab qoladi.

Dastlabki so'roqdanoq uning tahsilni tamomlash maqsadida pul topish uchun Polshaga borishi voqeasi zo'r aksilsovet faoliyat sifatida ko'rildi. NKVD "jodkor"lari tomonidan tayyorlangan so'roq bayonnomasiga ko'ra, "Mustaqil Turkiston" aksilsovet tashkiloti 1928-yoki 1929-yil boshlarida talabalar Ahmad Naim, Said Ali Xo'ja, Sattor Jabbor, Ahmadjon Ibrohimov, Bahovuddin Aminjonov, Afzal Abusaidov tomonidan tuzilgan. Uning a'zolari majburiyatlarini Afzal Abusaidov aytib turgan va Sattor Jabbor o'z qo'li bilan yozib chiqqan. Tashkilot ustavi tayyor bo'lgach, barcha talabalarga yetkazilgan va ular o'zlarini tashkilot a'zosi sifatida tan olib, o'z hayotini Vatani ozodligi uchun baxsh etishga qasam ichadilar.

So'roqlar davomida qahramonimizning Berlin shahri, Shyoneberg tumani, Xauptshtrasse ko'chasi, 96-uyda yashovchi Artur Merkshga qo'ng'iroq qilgan, Germaniyada o'qiyotgan do'sti Afzal Abdusaidga xat yozgani, 1931-yili Sattor Jabbor Germaniyadan kelib, eng avval Bahovuddinning uyiga borgan kabi holatlar josuslik faoliyati sifatida talqin etiladi. Holbuki, Bahovuddin Said Ali Xo'ja, Ahmad Naim, Afzal Abdusaid bilan 1922–1925-yillari sug'urta jamiyati rahbari Merkshning uyida ijarada turgan. Ular yillar davomida yaqin do'st bo'lib ketgan va Artur Merksh Bahovuddinga "uyingga eson-omon yetib borsang, albatta, qo'ng'iroq qilib qo'y", deb tayinlagani uchun bir marta sim qoqqan edi.

1937-yil 26-iyunda Bahovuddin Aminjonov Toshturna kasalxonasidan sobiq Ittifoq NKVD bosh komissari Yejev nomiga ariza yo'llaydi. Unda hech bir aybi yo'q holda qamoqqa olingani, tergovlar noqonuniy tarzda, to'liq zulm ostida olib borilganini yozadi. 1937-yil 29-apreldan buyon tuberkulyozning o'ta og'ir formasi bilan kasallanib, ikki oydan buyon turma kasalxonasida yotgani, bu yerda kun sayin o'limi yaqinlashayotganini ma'lum qiladi. U yoshligi va kelajakda vatan uchun xizmat qilishi mumkinligini, o'zining tibbiyot

xodimi ekanini aytib, tubdispanserda davolanishga ruxsat so'raydi. Turma kasalxonasida hech bir sharoit yo'qligini, na vrach, na dori borligini aytadi. Afsuski, yulvorishlar havoga ketib, ariza hech joyga chiqmasdan ishga tikiladi, xolos.

1938-yil 9-oktyabr. Bahovuddin Aminjonov O'zSSSR Jinoyat kodeksining bir qator moddalar bilan – Vatanga xiyonat, harbiy va davlat sirlarini sotish, josuslik (57-modda), qurolli qo'zg'olonga harakat (58-modda), sovetdavlatiga qarshi terakt (64-modda) va aksilinqilobiy tashkilotga a'zollikda (67-modda) aybdor deb topilib, unga nisbatan oliy jazo tayinlanadi va qabih hukm o'sha kunioyq ijro etiladi.


Keyinchalik Bahovuddin Aminjonov ishi uning turmush o'rtog'i Tanzila Ismoilovnaning arizasi asosida 1961-yil 9-yanvar kuni qayta ko'rib chiqiladi. Bu paytda Samarqand shahridagi fabrikada ishlayotgan Tanzila Ismoilovna so'roqqa chaqiriladi. U 1932–1936-yillarda eri bilan Yaltada yashagani, NKVD xodimlari tomonidan 1937-yil yanvarda erining qamoqqa olingani va oradan 9 oy o'tgach uni ham qamashganini, hech bir aybi va sababi ko'rsatilmagan holda 18 oy davomida hibsdan saqlashganini aytadi. "Biror marta so'roq-savol bo'lmadi, faqat uzoqdan ikki marta meni Bahovuddinga ko'rsatishdi, ammo so'zlashishga imkon berishmadi. Keyin qamoqdan chiqarib yuborishdi", deydi. Bu sovet tergovchilarining ayblanuvchilar kerakli bayonnomalarga imzo chekishi uchun qo'llagan "samarali" usuli edi. Bahovuddin Aminjonov haqida "u ona ilmi, vijdonli va madaniyatli inson edi. Uning halolligi haqida barcha tanishlaridan so'ranglar, axir, ular orasida tiriklari bor-ku!" deb yozadi qahramonimizning ayoli.

1961-yil 17-yanvar kuni so'roqda respublika silga qarshi kurashish dispanserining direktori, tibbiyot fanlari doktori, professor Shokir Alimov shunday deydi: "1936-37-yillarda Respublika tubdispanserida ordinaturada bo'lgan edim. Bahovuddinni o'shanda ko'rganman. Men bunday bilimdon, mas'uliyatli, talabchan, g'ayratli va mehribon insonni hech qachon uchratmaganman. U qisqa vaqtda butun jamoaning hurmatini qozonib ulgurgan edi. Bunday yaxshi odam kam bo'ladi".

1961-yil 18-aprel kuni sobiq Ittifoq Oliy sud harbiy kollegiyasi Bahovuddin Aminjonovni asossiz ayblangan deb topib, o'sha yilning 26-iyulida to'liq oqladi.

Bahrom IRZAYEV

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON

QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Muhitdin Husainov – 1907-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan. 1921-yilda komsomol a'zosi bo'lgan. Qo'qon shahridagi okrug sovet va partiya maktabida o'qigan. Jadidlarning "Botir gapchilar" tashkiloti faoliyatida qatnashganlikda, uning topshirig'i bilan yangi sho'balar tashkil etganlikda va unga rahbarlik qilganlikda ayblangan. 1931-yil 25-aprelda OGPU kollegiyasi RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4- va 10-bandlari bilan uni 5 yil muddatga konslagerga hukm qilgan.

Sa'dulla qori Shomuhammedov – 1892-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Chakana savdo bilan shug'ullangan. 1929-yil 12-noyabrda hibsga olingan. "Milliy istiqlol"ning targ'ibot guruhida faol ishtirok etganlikda ayblangan. 1931-yil 25-aprelda RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 10-bandi bilan OGPU kollegiyasi uni 3 yil muddatga konslagerga yuborgan. 1989-yil 29-martda reabilitatsiya qilingan.

Xayrulla qori Shomuhammedov – 1890-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Toshkent shahridagi o'zbek maktablarida o'qituvchilik qilgan. 1929-yil 6-noyabrda hibsga olingan. "Milliy istiqlol" aksilinqilobiy tashkiloti g'oyalarni targ'ib etishda ayblangan. RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 10-bandi bilan aybdor deb topilib, 1931-yil 25-aprelda OGPU kollegiyasi tomonidan 3 yil konslagerga hukm etilgan. 1989-yil 29-martda reabilitatsiya qilingan.

Najmiddin Sherahmedov – 1900-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Hibsga olingunga qadar aniq mashg'uloti bo'lmagan. 1929-yil 6-noyabrda qamoqqa olingan. "Milliy ittihad"ning a'zosi bo'lib, Afg'oniston konsulligi orqali savdogarlar orqali muhojirlar uchun pul yuborganlikda, Berlin shahridagi sovetlarga qarshi o'quvchilardan tashkil topgan kolonnani qo'llab-quvvatlaganlikda aybdor deb topilgan. RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 3- va 4-bandlari bilan ayblanib, 1931-yil 25-aprelda OGPU kollegiyasi tomonidan otuvga hukm etilgan. 1989-yili 28-martda reabilitatsiya qilingan.

G'ulom Ikromov – 1884-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. O'zbekiston Kompartiyasining sobiq a'zosi. Hunarmandchilik sanoat uyushmasi raisi bo'lgan. 1930-yil 17-iyunda qamoqqa olingan. Avvalda Toshkent "Uchligi" va bir vaqtning o'zida O'zKompartiya a'zosi bo'la turib, "Milliy istiqlol" faoliyatiga rahbarlik qilganligi arxiv hujjatlarida qayd etilgan. Munavvar qori Abdurashidxonov bilan bog'lanishga uringanlikda, Afg'oniston konsulligi bilan aloqa o'rnatganlikda, mazkur kollektorlarga tashkilotning moliyaviy resurslarini hal qilish maqsadida o'zi mas'ul bo'lgan mehmon uyidan boshpana berishga rozi bo'lganlikda ayblanib, RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 3-, 4-, 6-bandlariga asoslanib, 1931-yil 25-aprelda OGPU kollegiyasi tomonidan otuvga hukm etilgan.

Ibod qori Umarxo'jayev – 1879-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. 1919-yilgacha qazlama sotishi bilan shug'ullangan. 1919–1921-yillari sovet idoralarida xizmat qilgan. 1930-yil 3-noyabrda hibsga olingan. Tergovda Tangriqul hoji Maqsudovning ko'rsatmasi bo'yicha Ibod qori 1919-yili Xalq maorifi bo'limida, Ulug'bek nomli maktabda ish yurituvchi mudir lavozimida ishlagan. "Milliy ittihad" tashkilotiga moliyaviy yordam berganlikda ayblanib, 1931-yil 3-noyabrda OGPU Siyosiy vakilligi orqali 3 yil muddatga G'arbiy Sibirga surgun etilgan. 1989-yili 20-noyabrda reabilitatsiya qilingan.

Rustambek SHAMSUTDINOV, tarix fanlari doktori, professor Azizbek MAHKAMOV, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Nigoraxon AKBAROVA, tadqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).




TOMOSHA

OSH LAGANDAY BO'LAYLIK

O'tgan shanba bozorladim. Eh-he, hammayog' obod. Madrasani shundog' biqinida rasta-rasta baraka. Yetti qavat hasip ustidagi kuydirilgan kalla barra-barra ko'katni iskab yotibdi. Tag'in qator-qator olma-yu ananas, mayiz-u marjumak, bodrog'-u qovurdoq. Buyog'i ro'zamasmi, dona-dona xurmo, paqir-paqir nisholda, uyum-uyum talqon, tog'ora-tog'ora sumalag-u holvaytar. Nariroqda so'qoqlik kennoyi mador somsa sotyapti. Xullas, hammasidan cho'qib-cho'qib, o'zimga 25 so'mlik iftorlik yasadim.

Gulzor ko'cha oralab, shundog' katta yo'lga chiqayotib qarasam, tumonat odam. Biror nima tekin tarqatlayotgan bo'lsa, quruq qolmay deb (aytib bo'lmaydi-da, mohi ramazonda savobtalab ko'payadi) menam yelkalar aro kalla suqdim. Yopiray, teatrqa shuncha navbat?! Chamalab ko'rsam, og'iz ocharga hali ikki soat bor. Yemagim o'zimda. Ermak bo'pqolar dedim-da, qo'y terisini yopingan bo'ridekkina bo'lib, chiptachilardan shippa o'tib oldim. Yoqmasa, chiqib ketishga, aldab nima qildim, juda bo'lmay ketsa, kavsh qaytarib o'tirishga qulayroq joy topdim-da, cho'kdim. Avvalo, hali olganim issiqqina ko'ksomsani qornimga, shundoqqina oshqozon ustiga qo'ydim. "Ha" degan tuyaga mador. Hidiga ovunib tursin. Buyog'i ma'naviy ozuqa olamiz. Ana, boshlandi, chamamda. Chiroqlar o'chdi. Bir kampir sahnaga chiqdi. Qo'lida polyuvgich. Ishlaganday bo'lib yuribdi. Obbo, namuncha enasidan adashgan qo'ziday u yoqdan bu yoqqa o'tib qaytmasa bular?! O'tirsa-chi?!

Bir payt yelkamdan bittasi turtyapti. Yoshgina yigit, yonida baytaliyam bor. "Amaki, bu bizni joyimiz edi. Turasizmi?" "Yo'q, o'zimizlik! Birinchi kelgan birinchi o'tiradi!" Shivir-shivirni hushyorvoylardan biri eshitib, darrov tepamga keldi: "Amaki, biletizz ko'rsating".



Yo'q narsani qanday ko'rsatayin? Kalovlanib qoldim: "U, haligi, obbo, qayerga qo'ydim ekan-a..." Qo'lga tushdim-ov... Hushyorvoy tag'in niqtadi: "Bulani biletida shu joy ko'rsatilgan. O'zizniki qayerda?"

Sahnada shovqin-suron! Tomosha avjida! Endi nima qildim? Boshqa bo'shroq joyga o'tarman, desam ham chiptangni ko'rsat, u joyni egasi kepqolsa, yana ovara bo'lamiz, deyishdi. O'zi odamlarda madaniyat qolmadi. Na uyat, na andisha bor. Bezrayib qarab turishini-chi? Yoshi ulug' odam ekan, kel endi shunga joy beray demaydi. Ha, chipta obsan, obsan, a, mundog', parosatni ishlatib, ertaroq kelmaysanmi?! Tag'in tinchgina ko'rib o'tirgan kishini bezovta qilib balo bormi? Yo'q, hushyorvoy ko'nmadi. Topib olgani bitta gap: "Bilet!"

Iloj qolmagach, o'zimdan oqil-u ulamo "yasab" gerdaydim: "Hoy, menga qara, baraka topgur, meni

taniyapsanmi, men shu teatrni katasini amakisini qo'shnisi bo'lamani!" Uyam bo'sh kelmadi: "Menga desa, Raj Kapurni radno'y bojasi bo'lmaysizmi, biletni ko'rsating! Nima, shunda odam bu yerda qarta o'ynagani kelganmi? Aktyo'rlarniyam bola-chaqasi bor. Bizam makka-poyada so'ppayib turgan kastm-shimli chahorchop'masmiz. Ishlayap-biz!"

Oxiri, bo'lmadi. Kassaga borsam, berk. Qaytdim. Bir ko'nglim qo'y, tomosha ko'rmay yurgan joyingmi, tinchgina uyga sura qol, dedi. Ammo menam uluq ayirmasdan qaytmaydigan eski dallollardanman. Kirdingmi, bas, ortga yo'l yo'q! Qaytib, "Kassiring yo'g'akan. Qo'y, shuni ko'rib ketayin", dedim muros bilan. Ko'nmadi. Shartta 25 so'mni sanab, "bor baraka" qilib, qo'lga shappatlavordim. Chap ko'zimni qisib, "Kechki bozor, Toy!" deb qo'ydim. Kirgizvordi.

Tomosha avjida! Qiyqiriq, hush-tak! Ikki bekorchixo'ja bir ko'zi shaxmat taxtasida, bir ko'zi olma-kesak terib, "ot keldi, ot ketdi" qip o'tiribdi. U yondan bu yonga yo'rg'alayotgan tannozi Kotibaxon ham o'yinga suyagi yo'qmi, jigarso'xtalar yuragiga o't yoqib, "Yutganga pamil choy, yutqizganga voy-voy" deb qoshini bilanglatadi. Ishqilib, shaxmat zo'r narsa! Vaqt qanday yonboshlab, qosh qorayganini bilmay qolasan. Vaqtida bizam rosa surganmiz!

Aktyo'rlar ichida men tengi birovi bor ekan. Qo'qqis kaftini kamay qilib, "Bugun osh bor!" deb bo'kirib qolsa bo'ladimi? Sapchib o'rnimdan turibman! Esim qursin. Jamoliddin jo'ram oshga aytuvdi-ya! Bugun edi! Qanday unutdim! Nima jin urdi meni! Shu payt, qorin o'lgur bir burab oldi-yu. Sahnada beshta atlas qiyiq tang'igan chaqqon yigitchalar paydo bo'lib, shamollatish quvuridan

uzatilayotgan oshli laganlarni qo'lma-qo'l qila ketdi. Balli, ijodkor, topibsan! Baraka top! Osh o'zbekka havodek zarur! Voy, mana bularni palov ortidan yugurishini-i! Ko'zini qara, ko'zini! Hah, balli san'atkor, chertib aytibsan! Bir kun bizni osh o'ldiradi! Hammamiz osh solinadigan lagandekmiz. Qancha bo'lsa, sig'diramiz. Ammo kengmasmiz. Boshqalarga kengmasmiz. Faqat osh uchun maxsus yaralganmiz. Obbo, yana birov yelkamdan turtyapti-ku. Tag'in o'sha hushyorvoy. Burnimga allaqanday qog'ozni tiqishtiryapti. "Nima bu?" "Biletingiz. Mana bunisi chek. Salomat bo'ling." Voy, hushyorvoy-e! Savilgina rostmanasiga ishlarkan. Men cho'ntakka urib ketdimi deb turgandim. Qoyil, shunaqa odamlar haliyam bormi-ye?! Otangga balli!

Bir paytlar bizni Tangatopdi molbozoriga bir qirriq direktr bo'lib, "Halol ishla, to'g'ri yur, birovni haqini yema", deb enka-tinkamizni quritgan edi. O'ziyam oqsim tekkan buzovday qoqsuyak, pichoqqa ilinmaydigan zotidan ekan, qistirsang, dikonglab, shoxlab qolguday... Haqiqat bor, chillasi chiqmasdan qiya bo'pketdi. Hisobli dunyo-da!

Omale, manov tomosha mazza bo'ldi. Bo'yni qashlangan to'qliday miriqdim. Ochig'i, ochligimni unutdim. Chunki kallam to'ydi. Ko'nglim to'q bo'ldi. Vaqti yetib qolgan ekan, bir tishlam ko'ksomsa, bir ho'p-lam suv bilan og'iz ochdim. Shugina to'yirdi. Qolgani qoldi. O'zi 25 so'm emas, 10 so'mga to'yar qornim borakan. Lekin bir nimaga qoyil qolmadim. Sanab chiqsang, 25 kishi ishlaydigan bir sahna asari uchun 25 so'm to'ladim. Har biriga bir so'mdan. Bir qorin to'yishi 25 so'mdan qimmatga tushadi.

Nafsilamrini aytсам, anov nusxa bekor chipta-che kni tiqishtirdi. Bovujud o'z pulimga sotib olgandek bo'p-qoldim. Pattasiz ko'rganga nima yetsin! Nachora, tekin tomoshaga ishqiyozi xalqmiz-da!

Boboqand QO'CHQOR

TILBILIM



QATOV va MATOV

Shunday bir xalq termasi bor: Tuyalar yurar matovga, Kiyiklar yurar qatovga. Shu baytdagi qatov so'zining izidan tushib, ko'p narsalarni bilib oldim.

O'zbekiston xalq baxshisi Abdinazar baxshiga telefon qilib, shu termadagi qatov so'zi haqida so'radim. Baxshi bobo aytdiki, qatov – bu tog'ning qat-qat bo'lib qatlanib ketgan joylari. Tog' balandlagan sari unda shunday qat-qat qatlam ko'payadi. Kiyiklar ko'proq toshdan toshga sakrab qatovda yuradi. Bunga sabab, kiyikning kushandasi – bo'ri qatovda yurishga qiynaladi, kiyikni ovlay olmaydi.

Qatovni qot ham deyishadi. Xalq terminasida shunday gap bor:

Yigitlar yurar ot bilan, Kiyiklar yurar qot bilan.

Tuyalar yurar matovda degan misraning ham o'z ma'nosi bor. Tuyalarni ip bilan bir-biriga matab

bog'lash matov deyiladi. Tuyalarni ingichkaroq ip bilan matasangiz ham ular tartibni buzmay, bir-biriga matalib, izma-iz ergashib ketaveradi, matovni har tomonga tortqilashmaydi. Bu boramda tuyalarda qat'iy tartib bor. Boshqa jonivorlarda bunday emas, ularni qalin arqon bilan matasangiz ham har tomonga tortqilashib, tartibni buzishga harakat qilishadi. Tuyalar azaldan karvon bo'lib yurgani uchun bu intizom ularning qoniga singib ketgandir. Tuyalar matovda yurishning foydasini biladilar, shunday holda ular karvonda adashmaydilar, ortda qolib ketmaydilar.

Qashqadaryoda Qamashi tomonlari Qatov degan tog' ham bor. Bu baland tog' ham qat-qat bo'lib qatlanib turadi. Qarangki, o'zbek xalq termalarida kelgan bu so'z, hatto mamlakatimizda bir tog'ning nomi bo'lgan bu so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga kirmay qolgan.

Eshqobil SHUKUR

TARMOQLARDA NIMA GAP?

INSOF BERSIN...

Men bu postni uzoq mulohazalardan so'ng yozmoqdaman. Aytiladigan barcha fikrlar shartli.

Bugun hech kimni befarq qoldirmayotgan urush tagida o'zaro nafrat yotibdi. Faqat ukrainlar bilan ruslar o'rtasida emas, yana ko'plab tomonlar o'rtasida. Tarix ko'rsatadiki, bunday urush kamdan kam yarash bilan tugaydi, ko'pincha nafratni kuchaytiradi, alamga aylantiradi. Harbiy to'qnashuvlar vaqtinchalik to'xtasa ham, tomonlar o'rtasida taranglik payti kelishi bilan alam olish uchun tayyorlanish tarzida davom etadi, bu esa arzon tadbir bo'lmagan uchun xalqdagi boshqa tarafga nisbatan nafratni kuchaytirishga zo'r beriladi. Qarabsizki, dardga davo o'miga zahar qo'shish bo'ladi.

O'zaro nafrat va alam ongni ko'r qiladi, aqlni o'tmaslashtiradi. Bu jihatdan Rossiya-Ukraina urushi davomiy-ligi bo'yicha Isroil-Falastin mojarosining Yevropa variantiga aylanishi mumkin. Faqat, ikkinchisi lokal xarakterda davom etayotgan bo'lsa, birinchi global oqibatlar keltirib chiqarishi tayin (Alloh asrasin). Chunki dunyo bozorida g'alla eksportida Rossiya bilan Ukrainaning birgalikdagi ulushi 10 foizga yetadi deyilmoqdaki, bu urush siyosiy oqibatlardan tashqari hozir ko'pchilikning hatto xayoliga ham kelmayotgan muammolar, yangidan yangi mojarolar keltirib chiqaradi. Albatta, bu ikki birodar xalqni bir-biriga gigijilaganlar och qolmaydi. Ammo shunday ham arang non topib yeyayotgan qanchadan qancha xalqlarning ahvoli nima bo'ladi?

Alloh insof bersin.

Xulosalar:

1. Dunyoga hukmronlik qilish da'vosini qiluvchi davlatlar o'z ishtaha-



larini tiyish payti keldi. Ixtilof, g'ayirlik siyosatidan tinchlik, barqarorlik, o'zaro hamkorlik siyosati tomon yuz burish, xudbinlikdan nekinlik ustun davrni boshlash kerak.

2. Markaziy Osiyo respublikalarini bir-biriga gigijilash, ularning o'zaro munosabatini Falastin-Isroil, bugungi Rossiya-Ukraina munosabatlari-ga aylantirishga orzumand kuchlar o'z qit-mirligidan voz kechishiga ishonish qiyin, ammo Markaziy Osiyo davlat-larining rahbarlari, siyosatchilari, ziyoli-lari hushyor bo'lishlari, zig'ircha bo'lsin mojaro chiqishiga aslo yo'l qo'ymasliklari, har qanday nizoning oldini olish uchun kurashishlari shart.

3. XXI asr, ming afsuslar bo'lsinki, XX asrdan ham battar serurush, sermojaro bo'ladiganga o'xshayapti. Bunday sharoitda xalqimizning birligi, yakdilligini ta'minlash – ichki siyosatning bosh maqsadi, prinsipiga aylanishi kerak. Faqat bu prinsip kambag'alga qay darajada taalluqli bo'lsa, boy-u badavlatlarga yuz marta ko'proq taalluqli ekanligini anglash va shuni hisobga olib ish yuritish lozim. Har bir pora olish akti, har bir korruption imzo, har bir o'z lavozimini suiiste'mol qilish holati, har bir zo'ravonlik O'zbekistonning buguniga qarata otigan o'q, ertasining

ildiziga bolta urish, kelajagining tagiga suv quyish deya baholanishi kerak.

Mamlakatning birligi, yakdilligini ta'minlashning bosh omili – bu o'ta boy-lar bilan o'ta kambag'allar o'rtasidagi jarlikka barham berish. Busiz barcha tadbir-u tashviq-u targ'ibot samarasiz, hatto aks natija beradi.

4. Internetning o'zbek tilidagi segmentida ziddiyat haddan ziyod ko'p. Achinarlisi, ziyolilar o'rtasida ham. O'yab ko'raylik, millatdoshlarim, bu nimaga xizmat qiladi? Albatta, tanqid kerak, albatta qarama-qarshi fikrlar bo'lishi tabiiy. Ammo fikrlar, gaplar millat birligiga raxna solmaydigan tarzda bildirilishi lozim. Kimki haqoratdan o'zini tiya olmayaptimi, u hamisha nohaq, hatto shayton vasvasasi ta'sirida qolgani ehtimol.

Qudratli va odil Alloh taolo ezgu niyatilarga madadkor bo'lsin.

Abdulla A'ZAM,
Facebook

"Jadid" gazetasi jamoasi va muassislari tahririyat hisobchisi Bahodir Ahmadjonovga bobosi **Ahmadjon ota HOJIAHMEDOV** vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya bildiradi.

Jadid
adabiy, diniy, ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVİYAT VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

"SHAHIDLAR XOTIRASI" JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Shavkat Bobomurodov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi..

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 8 317
Lotin yozuvidagi adadi – 12 627
Media kuzatuvchilar – 39 701
Buyurtma: G – 340.
Hajmi: 4 bosma tabaq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:10
Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz